



E'TIROF

JAMIYATIMIZNING HAQIQIY QAHRAMONLARI

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar yuksak e'tiborga loyiq.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, xotin-qizlar jamiyatimizning haqiqiy qahramonlari hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni har tomonlama mustahkamlanmoqda.



tenglik va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur muhim hujjat ayollarga va bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining oldini olishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy choralar ko'rishni nazarda tutadi. Ayollar va bolalarning huquqlari ta'minlangan jamiyatda barqaror rivojlanish va inson huquqlariga hurmat bilan qarash ta'minlanadi.

Ushbu Farmon orqali jamiyatimizda barqarorlik va farovonlikni ta'minlash yo'lida muhim qadam tashlanmoqda. Ayniqsa, erta nikohning oldini olish, ota-onalarning voyaga yetmagan farzandlari uchun mas'uliyatini oshirish, moliyaviy mustaqillikka erishgan va oila qurishga har tomonlama tayyor bo'lgan yoshlar o'rtasida

nikoh tuzishni rag'batlantirish, ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish tizimini takomillashtirish, shuningdek, bunday holatga uchragan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish kabi chora-tadbirlar belgilangan.

(Davomi 3-sahifada.) ➔



VATAN MANZUMASI



Xosiyat BOBOMURODOVA,
O'zbekiston xalq shoiri

VATAN YAGONADIR

Derlar, shirin so'zning gadolari ko'p,
Yonib turgan ko'zning adolari ko'p,
Yurtlar bor, hattoki xudolari ko'p,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Kezdimki, dunyoning yo'llari uzun,
Fahmi noqislarining qo'llari uzun,
Ammo barchasining ko'rari, ko'zi,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Kimdir do'stlarini sotishi mumkin,
Kimdir o'ziga o'q otishi mumkin,
O'q o'tmas qal'aning borligi ham chin,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Vatan deb Vatandan ketganlar aytsin,
Sog'inch yoqasidan tutganlar aytsin,
Pushaymonlik zahrin yutganlar aytsin,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Nega uchgan qushlar qaytadi bot-bot,
Qozig'ini izlab kelar uchqur ot,
Dunyoda bor bo'lsin mehr, oqibat,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Mening Temur bobom, Sohibqironim,
Asrlarni yengib yelgan bo'ronim,
Qonidan qo'shilgan bir qatra qonim,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Yer yuzin qaratgan ko'rkam Samarqand,
Qirg'yil shohi bo'lgan Ulug'bekdek mard,
Ko'ksimdagi quvonch, ko'ksimdagi dard,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Birov bor, bolasin tashlab ketadi,
Birov bor, onasin tashlab ketadi,
Ammo Vatan tashlab ketmas hech qachon,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Nega tomirimga sig'may borar qon,
Erlarning joni o'n, meniki qirg'jon,
Ber desa, barini qilaman qurbon,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

(Davomi 4-sahifada.) ➔



BADIHA

Siz buyuksiz, AYOLLAR!



Aslida, siz har yili ko'klam bilan barobar, ko'klamday bexato keladigan bayramingiz arafasidagina emas, balki har kuni, har soat, har lahza madh-u sanoga, e'zoz-u ikromga, gul-u lolaga, mehr-u siylovga, muhabbat-u ardoqqa loyiqsiz, munosibsiz. Biz esa bilibmi-bilmaymi, xohlabmi-xohlamaymi, ba'zan sizning daxlsiz dilingizning nozik oynalariga darz yetkazib, ozor berib qo'yamiz. Shunga o'zimizda kuch topganimizni qarang-a... Aslida, siz...

Aslida, birgina beqiyos onalik mehringiz oldida ta'zim qilmaslikning iloji yo'q. Ota o'z farzandi beshigi ustida, loqaq, vaziyat taqozosiga ko'ra, bir kecha, atigi bir kecha bedor o'tirib chiqa oladimi?..

(Davomi 5-sahifada.) ➔

FAKT

✓ 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida farmatsevtika sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

✓ "10-mart – Xalqaro ayol sudyalari kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni imzolandi.

✓ Vazirlar Mahkamasi qarori bilan dunyoning "Top-300" talikdagi universitetlariga o'qishga kirganlarga 20 ming dollar-gacha ta'lim krediti beriladi.

✓ Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, yanvar oyida respublikada jami 22 ming 99 dona yangil avtomobil ishlab chiqarilgan.



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

ZAMONAMIZ AYAJONLARI

Toshkent shahri "Yangiobod" MFY raisi, "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibasi Manzura VALIYEVA bilan suhbat

– Siz kabi yuzi nurli, hayoti ibratli, nuroniy faslda ham faoliyatdan to'xtamagan, umrini el-yurt xizmatiga bag'ishlagan insonlarni ko'rsam, beixtiyor Abdulla Qahhorning "Ayajonlarim" pyesasi yodimga tushadi. O'zbek onasi qaysi davrda yashamasin, bolajonligi, fidoyiligi, mehnatsevarligi o'zgarmas ekan-da. Ayting-chi, bugungi dorilomon kunlarda millat ayolining qiyofasi qanday bo'lishi kerak?

– Qahramon shoirimiz Erkin Vohidov "O'zbek bo'lish oson emasdir", deb yozgan. O'zbek qizi, ayoli, onasi bo'lish yanada qiyin. Avvalo, bu millat xotin-qizlari tarixdan shu kungacha iffati, odobi, sharm-hayosi, tarbiyasi bilan alohida ajralib turadi. Bundan keyin ham shu fazilatlarini saqlab qolishini xohlayman.

(Davomi 2-sahifada.) ➔



ZAMONDOSH

SHUKUR BURHON BASHORATI

O'zbekiston xalq artisti Malika IBROHIMOVAg maktub

Assalomu alaykum, Malika! Yaxshimisiz? Ushbu maktubni yozishimga "Shaddod ona" spektakli va unda Siz ijro etgan shaddod ona – Anna Firling obrazi sabab bo'ldi.

Milliy teatrimizda ushbu spektakl qo'yilganini, bosh rolni Siz o'ynayotganingizni va spektakl qiziqish bilan tomosha qilina-yotganini eshitganimga ancha bo'ldi. Va uni ko'rish ishtiyoqi paydo bo'lgandi menda. Yashirmayman, teatrga tushmaganimga xiyla vaqt bo'lgandi. Ammo, ha deganda, bora olmadim. Boisi – spektakl kam qo'yilar ekan, boz ustiga, mening erinchoqligim (vaqtim yo'q edi, desam, yolg'on bo'ladi).

Xullas, yanvar oyining o'rtalarida "Shaddod ona"ni ko'rishga qasd qildim. Surishtirdim, 28-yanvar

kuni qo'yilar ekan. O'sha kundan boshlab, teatrga borishga, jahon dramaturgiyasi va teatr san'atidagi mumtoz asarlardan hisoblangan "Shaddod ona" spektaklini ko'rishga o'zimni ruhan tayyorlay boshladim. Bosh rolni Siz ijro etayotganingiz mening tomoshabin, teatr san'atining muxlisi sifatidagi mas'uliyatimni yanada oshirdi. Sababi – Siz to'g'ri kelgan asarda rol ijro etavermasligingizni, Sizga muayyan rol taklif qilinganda asarning muallifi kimligiga, qaysi mavzuda ekaniga, partnyorlaringiz kimlar bo'lishiga jiddiy e'tibor berishingizni yaxshi bilaman. Rejissyor-ku, alohida masala Siz uchun.

Nihoyat, 28-yanvar tongi otdi. Choshgohga borib qor yog'a boshladi.

(Davomi 5-sahifada.) ➔



TAHLIL VA TALQIN

JAHOLAT

"HIDOYAT" LIBOSIDAGI

Inson ilm bilan bugun fazoga chiqdi, agar jaholat to'sqinlik qilmaganda edi, barcha xalq va millatlar taraqqiy etib, Yer kurramiz nurga burkanar edi. Minglab yillardan beri boqiy obidalar qurish, farovon turmushga erishish, ilg'or ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, axborotni boshqarish, uzoqni yaqin qilish, samoga egalik qilishdan tortib, boshqa jabhalarda ham ustunlikka erishish uchun odam bolalari o'zaro raqobatda. Bu holat faqat harbiy yoki iqtisodiy sohalar bilan cheklanmaydi. Kalom, siyosat, ruhiyat, jamiyatshunoslik singari sohalarida ham qat'iy namoyon bo'ladi.

Ayrim hollarda bu kurash yashirin yo oshkora tarzda, mafkuraviy bosim yoki diniy-radikal g'oyalar tahdidi shaklida yuz ko'rsatadi.

(Davomi 3-sahifada.) ➔





Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar:

Satniyazova Indira Qaniyaz qizi – Qoraqalpogʻ davlat universitetining 3-bosqich talabasi (Qoraqalpogʻiston Respublikasi)

Erimbatova Dilnoza Nurulla qizi – Qoraqalpogʻ davlat universitetining 2-bosqich magistranti (Qoraqalpogʻiston Respublikasi)

Umurzoqova Moxlaroy Muxtorjon qizi – Andijon davlat pedagogika institutining 1-bosqich magistranti (Andijon viloyati)

Abduqaxorova Muslimaxon Mirzabaxrom qizi – Andijon davlat pedagogika institutining 1-bosqich magistranti (Andijon viloyati)

Ergashova Mehriniso Husniddin qizi – Buxoro davlat pedagogika institutining 1-bosqich magistranti (Buxoro viloyati)

Fayzullayeva Vazira Xamidovna – Buxoro davlat tibbiyot institutining 1-bosqich magistranti (Buxoro viloyati)

Tursunova Visola Behzodovna – Jizzax davlat pedagogika universitetining 2-bosqich talabasi (Jizzax viloyati)

Joʻraboyeva Muhsina Orif qizi – Oʻzbekiston Milliy universitetining tabiiy geografiya kafedrasida kabinet mudiri (Jizzax viloyati)

Murodova Marjona Shuxrat qizi – Bojxona institutining xalqaro hamkorlik boʻlimi inspektori (Qashqadaryo viloyati)

Amirova Latofat Bahrom qizi – Erkin ijodkor, shoira (Qashqadaryo viloyati)

Qudratova Mashxura Fazliddin qizi – Navoiy shahridagi Prezident maktabining 11-sinf oʻquvchisi (Navoiy viloyati)

Haydarova Laziza Nabijon qizi – Navoiy davlat universitetining 2-bosqich talabasi (Navoiy viloyati)

Ergashova Xushnozaoy Toxirjon qizi – M.Turgʻunboyeva nomidagi “Bahor” davlat raqs ansambli balet artisti (Namangan viloyati)

Ismoilova Gulshanoy Shuhrat qizi – Oʻzbekiston Milliy universitetining 1-bosqich talabasi (Namangan viloyati)

Mamedova Amaliya Parvizovna – Samarqand shahridagi 33-umumiy oʻrta taʼlim maktabining 11-sinf oʻquvchisi (Samarqand viloyati)

Tohirova Mohigul Umir qizi – Samarqand davlat universitetining amaliy psixologiya kafedrasida assistenti (Samarqand viloyati)

Mingboyeva Xulxayo Ulugʻbek qizi – Guliston shahridagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining 11-sinf oʻquvchisi (Sirdaryo viloyati)

Maxmudova Olimaxon Yusufjon qizi – Oʻzbek milliy maqom sanʼati markazining Sirdaryo viloyati boʻlimi sozandasi (Sirdaryo viloyati)

Ibrogimova Nodira Jurabekovna – Toshkent shahridagi “Shkola 21” nodavlat taʼlim muassasasi loyiha rahbari (Surxondaryo viloyati)

Shokirova Gulhayyo Oʻktam qizi – Toshkent toʻqimachilik va yengil sanoat institutining 1-bosqich magistranti (Surxondaryo viloyati)

Uralova Gulhayo Baxodir qizi – Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti 2-bosqich tayanch doktoranti (Toshkent viloyati)

Xolmuxamedova Parizod Jasurbek qizi – Yuqori Chirchiq tumanidagi 24-bolalar musiqa va sanʼat maktabining badiiy kashtachilik oʻqituvchisi (Toshkent viloyati)

Joʻraboyeva Dilafuzxon Sardorjon qizi – Xalqaro frilanserlik platformalari frilanseri (Fargʻona viloyati)

Sobirova Dilafuzxon Salohiddin qizi – Fargʻona shahridagi Prezident maktabining 11-sinf oʻquvchisi (Fargʻona viloyati)

Quronboyeva Moxinur Odilbek qizi – Urganch davlat tibbiyot institutining katta oʻqituvchisi (Xorazm viloyati)

Doʻsmetova Shahzoda Doʻsmet qizi – Oʻzbek milliy maqom sanʼati markazining Xorazm viloyati boʻlimi maqom xonandasi (Xorazm viloyati)

Saranseva Anastasiya Olegovna – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi 208-umumiy oʻrta taʼlim maktabining 11-sinf oʻquvchisi (Toshkent shahri)

Mavlonova Sevinch Sanjar qizi – “Yangi Oʻzbekiston” universitetining 2-bosqich talabasi (Toshkent shahri)

ZAMONAMIZ AYAJONLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Onam aytardi: “Ayol kishi misoli bir oq mato boʻladi, dogʻ tushishi oson”. Shuning uchun ham ayollik martabasi yuqori qoʻyiladi.

Ayol – oilada birinchi tarbiyachi. Hikmatlarda shunday yoziladi: “Axloqsiz otaning farzandi husni xulqli boʻlishi mumkin, ammo feʼli buzuq ayolning avlodi yaxshi tarbiya topmaydi”. Qarang, ayolning oila va jamiyatdagi oʻrni qanchalik muhim va yuksak! Shuning uchun ham yoshlar bilan boʻladigan uchrashuvlarda qizlarimizga ibo-hayoning ahamiyatini bot-bot takrorlayman. Qizning yurish-turishi haqidagi xulosa, avvalo, ota-onasiga tegishli boʻladi. Shu bois, mahallada yoshlar haqida gap ketsa, oʻzining ismi emas, “Falonchining qizi”, “Falonchining nevarasi”, – deb aytiladi. Yosh avlodni tarbiyalashda buviyjonlarimiz tajribasi – hayot maktabi, degani. Ana shu maktab darslariga kanda qilmay qatnashgan, imtihonlaridan “besh” baho olgan qiz shaxsiy hayotida ham, oʻqish va ish jarayonida ham qoqilmaydi, yutuqqa erishsa havolanmaydi, toʻsiqqa uch-rasa, yengib oʻtishga kuch topadi oʻzida.

Ayol maʼrifatli boʻlish bilan birga, tadbirli ham boʻlishi zarur. Xoh uy bekasi boʻlsin, xoh lavozimda ishlasin, ayoligicha qolsin. Uyda oʻtiribman deb, oʻzini qoʻyib yubormasin: til oʻrgansin, hunar oʻrgansin, sogʻ-liligiga, tashqi koʻrinishiga qarasin. Ishlaydigan qizlarimiz ham pul top-sam boʻldi deb, uy-roʻzgʻorni oʻz holiga tashlab qoʻymasin. Xonadonning sarishtaligi, bolalar tarbiyasi, erning koʻngliga qarash – bular ayol manglayiga bitilgan masʼuliyat. Ana shularni teng olib keta olgani uchun ham Hazrati Ayol deb ulugʻlanadi.

Erkaklar ham rafiqasiga eʼtiborli boʻlsin, faqat uy-roʻzgʻorning kam-koʻstiga qaramay, ayolining ham istaklariga eʼtibor bersin, koʻnglini olsin, chiroyli boʻlib yurishiga, oʻzini parvarish qilishiga pul ajratsin.

Mana, bahor bayramlar fasli. Biz nomi-yu maqomlarini baland tutadigan togʻlarimiz boʻlgan yigitlar, erkaklar oilasidagi nozik xilqat vakillariga eʼtiborli boʻlsin. Sovgʻa deganda faqat qimmatbaho matohlarni tushunish kerakmas. Bir dasta gul, ikki ogʻiz shirin soʻz ayol uchun dunyo molidan ortiq.

– Bugun xotin-qizlarimiz kirib bormagan soha deyarli qolmadi. Barcha jabhada faolmiz. Ammo oila va ish oʻrtasidagi muvozanatni ushlab doim ham oson boʻlmaydi. Siz faoliyatingiz davomida bu masalaga qanday qaragansiz?

– Muvozanat ushlashning eng yaxshi yoʻli eʼtibor va vaqtning toʻgʻri taqsimlash, yaʼni intizomli boʻlish kerak. Ish yoki oʻqishni yangi boshlaganlar pala-partish hayot kechiradi-da, keyin bunaqa yurish menga emas ekan deb, tayyor joyini menga berib ketadi. Bizning momolarimiz ham davlat ishida, ham oilada baravar jon kuydirgan, undan ortib ilm, sanʼat, adabiyot bilan shugʻullangan. Biz nega eplolmas ekanimiz? Faqat sabr, tartib va fidoyilik kerak.

Men ishimni yaxshi koʻraman. Baʼzida bolalarim: “Onajon, mahallangizni bizdan ham yaxshi koʻra-siz”, deb hazillasib qoladi. Chunki farzandlarimni uyli-joyli qilib, nabira-larni oyoqqa qoʻygandan beri koʻp



vaqtim ishda oʻtyapti. Avvallari teskarisi boʻlardi, imkon qadar ishla-rimni vaqtdan oldin bajarib, uyga shoshardim.

Mahallada har kuni bir muhim tadbir yo masala chiqadi. Kimdir toʻy boshlagan, kimnikidadir aza. Birovni baxt bilan tabriklaymiz, birovning dardiga sherik boʻlamiz, ehtiyojmandlarga yordam yoʻlini axtaramiz. Har bir oila oʻz dardi bilan andarmon boʻlsa, mahalla raisi hududidagi barcha oilaga parvona boʻladi. Toʻyga bormas-ligim mumkin, lekin ogʻir kunlarda, albatta, mahalladoshlarimning yonida turaman.

“Tarix davomida qanday ogʻir sinovlarga duch kelmaylik, biz avvalo birdamlikdan kuch oldik. Mashaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh boʻlib qiyninchiliklarni yenggan. Oila – oilaga, qoʻsh-ni – qoʻshniga koʻmak berib yashagan. Biz mana shunday oʻta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak”.

Shavkat MIRZIYOYEV

Zamonaviy rahbarga kekkayish xos emas. Men oddiylikni, samimiylilikni, kamtar insonlarni yaxshi koʻraman. Hayot yoʻllarimda qiyninchiliklarga uchrasam ham, koʻnglim boʻshligi uchun uchradim, yutuqlarga erishsam ham, shu xislatim uchun erishdim. Mahallada raisman deb yurgan bilan ish bitirib boʻlmaydi. Odamlarga yoshi, feʼl-atvoriga qarab muomala qilish kerak. Ruhshunos boʻlib ketasiz yillar davomida. Kimni bolam deb, kimni ukam deb, kimni opam deb, jonim qizim, sulton bolam deb, yaxshi yoʻlga boshlayman, yomon yoʻldan qaytarishga harakat qilaman.

Bolajonlar “Buviyon” deb kelishadi. Jujuqlar uchun tortmanga shirinlik, qurut-turshak solib qoʻyaman, biram xursand boʻlishadiki.

– Bolajonlarda haqiqiy mehrni nozik his qilish bor.

– Haqiqatda shunday. Bolaga yolgʻon gapirib boʻlmaydi. Mehr bersangiz, mehr olasiz. Koʻpincha bir xilgilar xafa boʻlsa, aytaman-da, mehr beringlar. Umuman, mehr hammaga kerak. Odamlar oʻzini qoʻrs, sovuq, takabbur koʻrsatishi mumkin. Ammo ich-ichidan mehr-eʼtibor kutadi. Ayni shu narsalar yoʻqligi uchun ham feʼli ayniydi. Doim aytaman: yomonlikka ham yaxshilik qaytaring, hech boʻlmasa, yomonlik qilmang.

Lekin hayotda har xil inson uchrar ekan. Ishda shunaqa odamlarga duch kelasiz, siz ayolmisiz, yoshi ulugʻmisiz, qarab oʻtirmaydi. Muoma-lasidan ilon poʻst tashlaydi. Shunaqa paytda tilimga shunday soʻzlar keladiki... Yana oʻzimni bosaman. Madaniyatni, kasbiy etikani qoʻldan bermaslikka tirishaman. Yana qaytaraman: ayol ayoligicha qolishi kerak. Asta-sekin oʻshalar ham oʻzini bosib oladi.

Dunyo shundoq ham notinch. Katta yovuzliklar kichiklaridan hosil boʻladi. Shuning uchun, yaxshilik urugʻini ekaverish kerak. Uning mevalarini avlodlarimiz totadi.

– Yangiobod mahallasi nomiga munosib maskan ekan. Yangi va obod koʻchalar, binolar...

– ...Va yangicha dunyoqarashli odamlar, obod koʻngillar. Bilasizmi, mahallamizning oʻn yil oldingi holati bilan bugunini solishtirsak, yer bilan osmoncha farq bor. Mahalla idorasi eski bir imorat edi, hashar yoʻli bilan taʼmirlab odam kiradigan joy qilgandik. Keyin Prezidentimizning mahalla tizimiga qaratgan eʼtibori natijasida minglab mahalla idoralari kabi chiroyli rekonstruksiya qilib berildi. Mana, milliy ayvon qurib berishdi. Shunaqa sharoitda ishlamay boʻladimi?

Farovonlik kaliti tadbirkorlikda ekan. Biz, avvalo, yashash sharoiti ogʻir oilalarga eʼtibor berdik. Daromad yoʻq oilada kelishmovchilik koʻpayadi, topganidayam baraka boʻlmaydi.

Bir oilani aytib beray. Er jazoni oʻtash muassasasida bir necha yil oʻtirib, ozodlikka chiqdi. Ayolning oqilaligi sababli, oila buzilib ketmadi, aksincha, er-xotin tadbirkorlik bosh-ladi. Avval qandolat mahsulotlari chiqarishdi, keyin non mahsulotlari. Endi moʻjaz oshxona ham ochdi. Mashina oldi. Qarang, mahallaning qoʻllab-quvvatlovi, tadbirkorlikka yaratib berilgan imkoniyat jar yomasiga kelib qolgan oilani obod qilib yubordi. Odamning oʻzida harakat boʻlsa, nimalar qilmaydi, deysiz. Ularning quvonchidan men ham quvonaman. Haligi kelinning: “Opa, bolaning boʻtqasiga ham pulim yoʻq”, deb yordam soʻragan paytlari boʻlgan. Endi kelib: “Onajon, muhtoj ayollar boʻlsa aytimg. Yordam beraman, roʻzgʻoriga ham, hunar oʻrganishiga ham”, deydi. Hayajonlanmay boʻladimi?!

Prezidentimiz jasorat bilan yurti-mizda kambagʻallik koʻrsatkichlarini tan oldi, haqiqatga tik qaradi. Shundan soʻng, tizimli ravishda kam-bagʻallikni qisqartirish boʻyicha islohot boshlandi. Bu oʻz natijasini bermoqda.

– Bugunidan koʻngli xotirjam odam kelajak haqida bemalol xayol suradi. Xayol nima ekan, aniq reja va maqsadlar qoʻyadi oldiga. Istiqboldagi rejalaringiz qanday?

– Rostini aytganda, istiqbolimiz uchun davlatning oʻzi qator dastur va chora-tadbirlarni puxtalik va sinchkovlik bilan tuzib bermoqda. Bizga ularni namunali ijro qilish qolyapti, xolos. Eʼtiborlisi, tashabbus va takliflar uchun ham erkin muhit yaratildi.

Qarang, har bitta mahallaga Yangi Oʻzbekiston qiyofasi olib kiriladi, deyilyapti. Bunaqa ishonch va qatʼiyat sizga ham kuch beradi-da. Demak, jamiyat yana ham rivojlanadi, xalqning yashash sharoiti yanada yaxshilanadi. Bu yerda mahalla raisining alohida oʻrni bor, u boshqalarga nisbatan koʻproq mehnat qilishi, koʻproq izlanishi, xalq bilan ishlashi kerak. Shu xalqning dardi bilan yashasangiz, halol, masʼuliyatli, samimiy boʻlsangiz, oʻshandagina xalq bilan til topishasiz.

Davlat xalqqa qoʻlni choʻzsa, xalq unga yuragini ochadi. Biz xalqning yuragiga kirib borishimiz kerak. Baʼzan odamlar ota-onasiga aytmagan dardini kelib bizga aytadi. Unga yechim topishimiz, yordam berishimiz kerak.

– Mahallaning yutuq va kam-chiliklariga toʻxtalib oʻtsangiz.

– Shuncha sharoitga qaramasdan, ayrim insonlar va oilalarning loqayd va beparvoligi, farzandlar tarbiyasiga eʼtiborsizligi meni qiynaydi. Axir, sening kelajaging oʻsha farzanding-ku! Loqaydlik – eng yomon, eng katta muammo, kamchilik, deb bilaman.

Yutuqlarimizga kelsak, faxr bilan aytla olaman, oldingi yillarda ham, joriy yilda ham bizda jinoyatchilik boʻlmadi, ajrim boʻlmadi. Buning tagida qanchalik mehnat yotganini oʻzim bilaman. Mahalla yettilligi, jamoatchilik, nuroniyalarimizning juda katta oʻrni bor bu yerda. Nuroniyarga har doim minnatdorlik bildiraman.

– Manzura aya, Xalqaro xotin-qiz-lar kuni arafasida dil izhorlaringizni gazetamiz orqali yurtdoshlarimizga yetkazishingiz mumkin.

– Aziz ayollar, hamisha suyuqli boʻling. Bugun Oʻzbekiston ayollari dunyoga chiqiyapti: sport deysizmi, ilm-fan deysizmi, ishlab chiqarishmi, yurtdoshlarimiz peshqadam. Bil-sangiz, Prezidentimiz xorijiy mehmon-larni kutib olganda, faxriy qorovul saf tortadi. Shu safda barno qizlarimizni koʻrib, beixtiyor quvonib ketaman: “Yashang, Toʻmaris qizlarim!” deb qoʻyaman.

Barcha bayram va qutlovlar sababi – Vatan ozodligi va tinchligidir. Yurtimiz osoyishtaligi va taraqqiyoti bardavom boʻlsin!

Mahallalarimiz obodligiga koʻz tegmasin! Har bir oilada tinchlik, xotirjamlik boʻlishini, farzandlari ota-onalari bagʻrida katta boʻlishini, yoshlarimiz yurtga kerakli barkamol insonlar boʻlib yetishishlarini, ular bilan faxrlanib yurishimizni istayman.

Mana shunday sharoitlarni bizga yaratib, imkoniyatlarni qilib bergan muhtaram Prezidentimiz omon boʻlsin. Biz bugun butunlay boshqa hayotda, Yangi Oʻzbekistonda yashash sharafiga mukharraf boʻldik. Yurt-doshlarimizni shu hayotning qadriga yetib, shukrona bilan yashashga chaqiramiz.

– Katta rahmat, ayajon. El-yurt xizmatidan charchamang!

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA

HAMKORLIK

Yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qoʻygan Oʻzbekiston uchun oliy taʼlimni chuqur isloh qilish, uni xalqaro maydonga integratsiyalash hamda taʼlim diplomatiyasini tashqi siyosatning ustuvor yoʻnalishiga aylantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Yaqinda Rim shahrida oʻtkazilgan “Italiya va Oʻzbekiston oʻrtasida innovatsiyalar hamda akademik hamkorlik: bugungi holat va kelajak istiqbollari” mavzusidagi II forum ana shu siyosatning mantiqiy davomi sifatida namoyon boʻldi. Forum Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Italiya Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan qabul qilingan “Yoʻl xaritasi” asosida tashkil etildi. Bu jihat anjumani oddiy

TAʼLIM TARAQQIYOTGA ELTADI

akademik uchrashuv emas, balki davlatlararo kelishuvlarni amaliyotga tatbiq etuvchi muhim diplomatik mexanizm ekanini koʻrsatadi. Forumda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vaziri Qoʻngʻiroʻtboy Sharipov, Oʻzbekistonning yetakchi oliygohlari rektorlari, Italiya universitetlar va tadqiqotlar vaziri Anna Mariya Bernini hamda Roma Tre universiteti va boshqa nufuzli oliy taʼlim muassasalari rahbarlari ishtirok etdi.

Bugungi kunda Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan Turin politexnika universiteti hamda Piza universiteti filiallari Oʻzbekiston–Italiya taʼlim hamkorligining yorqin namunasiga

aylangan. Soʻnggi ikki yilda yuzdan ortiq professor-oʻqituvchilarning Italiyada malaka oshirgani, yuzlab talabalarning italyan tilini oʻrganayotgani va qoʻshma ilmiy tadqiqotlar olib borayotgani akademik almashinuvning real natijasidir.

Forum doirasida Trento universiteti bilan qayta tiklanuvchi energiya va ekologik barqarorlik sohasidagi muzokaralar, Marangoni instituti bilan moda va dizayn yoʻnalishidagi hamkorlik masalalarini muhokama qilinishi taʼlim diplomatiyasining iqtisodiy va innovatsion samaradorlik bilan uygʻunlashayotganini koʻrsatadi. Bu jarayon Oʻzbekistonning “yashil” iqtisodiyotga oʻtish va

kreativ sanoatni rivojlantirish strategiyasi bilan hamohangdir.

Tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar yoʻnalishida tahsil olayotgan talaba sifatida ushbu nufuzli forumda ishtirok etish men uchun katta tajriba boʻldi. Ayni paytda, talabalarning ana shunday yirik xalqaro platformalarda qatnashishi oliy taʼlim tizimida sifat jihatidan yangi bosqich boshlanganini anglatadi. Bu – yoshlar salohiyatiga bildirilayotgan ishonch, ularni global jarayonlarga jalb etish va kelajak diplomatiyasining poydevorini bugundan mustahkamlash, demakdir.

Rim forumi Oʻzbekiston va Italiya oʻrtasidagi strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtiradi,



ilmiy integratsiya va innovatsion sheriklikni mustahkamlaydi. Eng muhimi, u Yangi Oʻzbekistonning ochiq, zamonaviy va raqobatdosh taʼlim modelini xalqaro maydonda namoyon etuvchi muhim qadam sifatida tarixda qoladi.

Feruza RAHMATOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi



JAMIYATIMIZNING HAQIQIY QAHRAMONLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Farmonga ko'ra, homilador talaba-qizlarga yoki 3 yoshgacha bo'lgan farzand tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi talabalarga oliy ta'lim olish uchun "ikkinchi imkoniyat" yaratish maqsadida, 2026–2027-o'quv yilidan boshlab kursdan qolgan yoxud talabalar safidan chiqarilgan shaxslarga, istisno tariqasida, fanlar farqini qayta o'zlashtirish sharti bilan ta'limni davom ettirish imkoni berilmoqda. Bunday imkoniyat mustaqil O'zbekiston tarixida hech qachon yaratilmagan.

O'zbekiston Prezidentining "8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida"gi farmoni mamlakatimizda ayollarga bo'lgan ehtirom va e'zozni yanada mustahkamlash, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rini oshirish maqsadida qabul qilingan yana bir muhim hujjat bo'ldi. Farmon, avvalo, xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirishga qaratilgan. Ayollar jamiyatning barqarorligi, rivojlanishi va farovonligi uchun muhim rol o'ynaydi. Xotin-qizlarni rag'batlantirish orqali ularning faolligini kuchaytirish va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshirish mumkin.

Mukofotlangan yurtdashlarimiz o'zlarining samarali mehnati, boy bilimi, hayotiy tajribasi bilan yoshlarga ibrat va namuna bo'ladi. Xotin-qizlarni rag'batlantirish ularning iqtisodiy faolligini oshirib, mamlakatimiz taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbarining "Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida"gi qarori, o'zining ijodiy, ilmiy, ijtimoiy faolligi bilan yoshlarga namuna bo'lib kelayotgan

qizlarni rag'batlantirishga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, qizlarimizning o'z iqtidorlarini to'la-to'kis namoyon etishi, yangi g'oyalar bilan chiqishi va jamiyatning ijobiy o'zgarishlaridagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mana shunday yuksak e'tibor samarasi o'laroq, keyingi to'qqiz yilda mamlakatimizda xotin-qizlarning turli sohalardagi ishtiroki sezilarli darajada oshdi. 2017-yilda boshqaruvda xotin-qizlar soni 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu raqam hozirgi kunda 35 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi deputatlar orasida ayollar ulushi 38 foizni, Senat a'zolari orasida esa 27 foizni tashkil etmoqda.

To'maris izdoshlarning sportdagi muvaffaqiyatlari ham alohida e'tiborga sazovordir. Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida ayol sportchilari 3 ta oltin, 8 ta kumush, 3 ta bronza, jami 14 ta medalni qo'lga kiritgani, madaniyat va san'at sohasidagi xalqaro tanlovlarda 25 nafar ayolning g'alabasi, mamlakat miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda esa 71 nafar iste'dodli xotin-qizlarning muvaffaqiyati ularning ijodiy salohiyati yuqori ekanini namoyon etadi.

Davlatimiz tomonidan ayollar uchun zarur sharoitlarni yaratish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Ayollarni ijtimoiy himoya qilish masalalari ijtimoiy davlat tamoyilini nazarda tutadigan yangilangan Konstitutsiyamizda ham to'la aks etgan. 2025-yilda nogironligi bo'lgan 162 ming nafar ayolga tibbiy, boquvchisini yo'qotgan 130 ming nafar xotin-qizga moddiy yordam ko'rsatildi. Xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash maqsadida 230 ta tug'uruq muassasasi zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlandi.



Saraton kasalligiga qarshi kurashish uchun ayollarni skrining tekshiruvlaridan o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Ma'lumki, qizlarning sifati ta'lim olishi butun oila va jamiyatga naf keltiradi. Bilimli oila – ma'rifatli jamiyatning asosidir. Bugungi kunda talabalarining 52 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etayotgani mana shu ezgu g'oyaning amaliy natijasi hisoblanadi. Ayni paytda, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlar soni ham ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtda ular yurtimizdagi jami ilmiy ishlanmalarning 25 foizini yaratib, bu borada ham o'z o'rini mustahkamlamoqda.

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash faqatgina ayollarga emas, balki butun jamiyatga manfaat keltiradi. Zamonaviy ta'lim va kasb-hunarlarini egallash, chet tillarini o'rganish, oliy ma'lumotga ega bo'lish bugungi kunda har bir qizning huquqi va imkoniyati hisoblanadi.

2025-yili 250 ming nafar qiz oliy ta'limga qabul qilinishi, bu raqam 2017-yilga nisbatan 3,5 karra ko'p ekan – bu jarayondagi ijobiy o'zgarishlarning yaqqol isbotidir.

Shuningdek, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish uchun ham 250 ming nafar ayolga imkoniyat yaratiladi. "Yorqin kelajak" loyihasi doirasida kamida 200 nafar qiz dunyoning nufuzli oliygohlariga o'qishga yuborilishi kelajak avlodning bilimi va raqobatdosh bo'lishi uchun muhim qadamdur.

Keltirilgan fakt va raqamlarni balki osongina sanash mumkin, ammo har bir raqam ortida katta siyosiy iroda, mashaqqat va intilish yotibdi. Tan olib aytish kerakki, ayollarning tashvish va mashaqqati ham, zimmasidagi mas'uliyati ham erkaklarga nisbatan ancha yuqori. Uy-ro'zg'or ishlari va farzand tarbiyasidan ortib ta'lim olayotgan, mehnat qilayotgan va tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlar haqiqatan ham qahramondir. Shu ma'noda, Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning og'irini yengil qilish, ular uchun barcha sohalarda zarur sharoitlarni yaratib berish doimo davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, ayollar va bolalarni himoya qilish – erkaklar uchun sha'n va g'urur masalasidir.

Kelgusida qonunchilikni yanada takomillashtirish, xotin-qizlar uchun barcha sohalarda keng imkoniyatlar yaratish, ularni ta'ziy va zo'rvonlikdan himoya qilish hamda oila institutini mustahkamlash yo'lidagi ishlar izchil, tizimli va bosqichma-bosqich davom ettiriladi. Zero, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlangan davlat va jamiyatning kelajagi yorug', taraqqiyoti bardavom bo'ladi.

Jamoliddin BADALOV

Boshlanishi 1-sahifada.

Negaki, bunday xatti-harakat oqibatida neft, gaz va suv kabi strategik resurslar ustidan nazoratni qo'lga kiritish, shu bilan birga, iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash, o'zga xalqlar ustidan hukmronlik qilishga erishish mumkin. Qolaversa, radikal kuchlarni nazorat ostida ushlagan tomon ularni zarur paytda o'ziga raqib bo'lgan davlatlarga qarshi ishlatishi yoki muayyan harbiy-siyosiy strategiyalarda qo'llashi mumkin. Buning yaqqol misoli aksar Yaqin Sharq mamlakatlarida sodir bo'layotgan voqealarda ham ko'rinadi.

Jahonda biror davlat yo'qki, zo'ravon ekstremizmdan, terroristik aktlardan, radikal g'oyalarning turmushdagi aks sadosidan aziyat chekmagan bo'lsa. Shuning uchun yoshlarni radikal, ekstremistik va terroristik g'oyalardan ta'siridan asrash masalasiga jiddiy e'tibor qaratish shart. Negaki, bu xalq va davlat taqdiriga daxldor masala.

Misir Arab Respublikasidagi Ekstremizmga qarshi kurash "Al-Azhar" observatoriyasi direktori Reham Abdullah Salama o'z yurtidagi radikal g'oyalarga qarshi kurashishning amaliy tajribasi haqida shunday deydi:



– Dunyo musulmonlarining katta qismi arab tilida so'zlashmaydi, shu bois, islom haqidagi ma'lumotlarni turli vositalar – veb-saytlar, imomlar yoki "Google" orqali oladi. Shuning uchun ularga turli tillarda talqinlayotgan yot va mutaassib fikrlarni aniqlab, o'sha tillarda javob berishga harakat qilamiz. Radikal g'oyalardan, eng avvalo, yoshlar himoyaga muhtoj.

Yaqinda shunday voqea sodir bo'ldi. 15 yoshli o'smir ota-onasi bilan birga markazimizga keldi. U ekstremistik g'oyalarni ta'siriga tushib qolgan ekan. Unga oddiy o'yin – PUBG orqali murojaat etishgan. O'yin payti unga avval video, keyin xabarlar yuborishgan. U bilan shaxsiy aloqa o'rnatilgach, Telegram orqali uzoq va kuchli ta'sir o'tkazishgan. O'taning aytishicha, farzandi ijtimoiy hayotdan chetlashgan, hatto, o'ziga yaqin ayol qarindoshlari bilan ham salomlashishni istamay qo'ygan, uzoq vaqt yotoqxonada o'tiradigan bo'lib qolgan. Biz tekshiruv o'tkazib, masala jiddiy ekanini aniqladik. Bola bilan ishlash oson bo'lmadi.

JAHOLAT

“HIDOYAT” LIBOSIDAGI

Chunki unga juda ko'p yolg'on va bir tomonlama kontentlar ko'rsatilgan ekan. Unga kitoblar berdik, muloqot qildik, bahs-munozara ham bo'ldi. Keyin uni "Al-Azhar" universitetiga va "Al-Husayn" jome' masjidiga ekskursiyaga olib bordik. U avvaliga o'z qarashlarini qat'iy himoya qildi. Lekin vaqt o'tib, o'zgardi. Unda to'g'ri fikrlash jarayoni boshlandi. Endi u foydali shaxs. Agar bu jarayon bo'lmaganida, u terrorchi tashkilotlar safiga kirib ketishi mumkin edi.

Ushbu voqea misolida biz barcha ota-onalarga murojaat qilamiz: farzandingizga e'tiborli bo'ling. Agar unda qandaydir o'zgarish sezilsa – qiziqishlarini yo'qotsa, o'zini olib qocha boshlasa – aslo beparvo bo'lmang!

Reham Abdullah Salama haq. Har bir ota-ona farzandini kuzatib borishi shart. Chunki hozirgi davrda har bir bola ekstremizm nishoniga aylanishi ehtimoli juda yuqori.

Aleksandriya kutubxonasidagi direktori Ahmad Abdulloh Zayd fikriga ko'ra, bizning eng muhim vazifalarimizdan biri – yoshlarni ekstremizmdan himoya qilish, ularni madaniy va ilmiy dunyoga



jalb etish, shu bilan birga, ma'rifat, bag'rikenglik, boshqalarga hurmat va ishonch qadriyatlarini singdirish:

– Masalan, faqat mening dimim to'g'ri, faqat mening millatim yaxshi, faqat mening tilim ulug', deyish yoki faqat zamonaviy madaniyatningina ma'qul deb hisoblash ham mutaassib qarashdan boshqa narsa emas. Yoshlarni turli davrlardagi falsafa, ilm, din va san'at namoyandalari bilan tanishtirish lozim, toki, ular anglasinki, insoniyat sivilizatsiyasi hech qachon faqat bir xalq yoki bir millat ishi bo'lmagan, balki u doimiy ravishda bir-birini boyitib borgan Mesopotamiya, Misr, Hind, Xitoy, Yunon, Finikiya, Iskandariya, Movarounnahr,

islom va zamonaviy G'arb sivilizatsiyasi madaniy meroslaridan tashkil topgan.

Diniy va dunyoviy ilmlar o'rtasida ajralish bo'lishi mumkin emas. Islom faqat oxirat haqida emas, balki bu dunyo hayoti haqida ham g'amxo'rlik qilishni buyurgan. Iymon faqat namoz, ro'za va boshqa ibodatlar bilan cheklanmaydi. Iymon to'liq jarayon: u ibodatni ham o'z ichiga oladi, bir vaqtning o'zida dunyoviy hayotga ham e'tibor berishni talab qiladi. Shuning uchun musulmon kishi dunyoviy ilmlarni o'rganishi shart. Chunki islom olami faqat dunyoviy ilmlar egallanganida rivoj topadi.

Diniy radikalizm islom dini belgilagan muvozanatga daxldor emas. Bir necha o'n yillardan beri biror yurtini istilo etish, itoatda tutish, davlatning hududiy yaxlitligiga rxna solish, mustaqilligidan qisman yo' to'la judo etishda diniy radikalizmdan ustamonlik bilan foydalanilayotgani jiddiy hushyorlikni talab etadi. Bunday g'arazli harakatlarning mavjudligini tadqiqotchi-olimlar allaqachon isbotlagan. Bundan yigirma bir yil muqaddam fransuz sharqshunosi, siyosatshunos va yirik dinshunos ekspert Olive Rua diniy radikalashuv hodisasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlaridan so'ng, shunday istehzoli savolni o'rta taqashlagan edi: Islom radikalashayaptimi yoki radikalashuv islomlashayaptimi? Ushbu hodisa bilan bog'liq jarayonlarni diqqat bilan kuzatgan har bir kishi, diniy radikalizمنى zamonaviy dunyoning istilochilik borasidagi yangi fenomeni, degan bo'lardi.

Siyosat, san'at, texnologiya, sanoat, su'niy idrok va farovonlik borasida ilgari ketgan mamlakatlarda, shubhasiz, ilm taraqqiy etgan. Buning aksi hukm surayotgan makonlarda esa, afsuski, jaholat ildiz otganini ko'ramiz. Ilmga loqaydlik, hunar egallashga beparvolik bugun ham ko'plab mamlakatlarni yer sharning zulmatga burkangan puchmoqlarida yashashga mahkum etgan. Buning yana bir sababi bor. U geosiyosatdir.

Geosiyosat, oddiy qilib aytganda, turli mamlakatlar o'rtasidagi "katta shaxmat o'yini". Unda har bir hudud, daryo, tog', dengiz yo'li yoki gaz quvuri ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu o'yinda geosiyosiy raqibni zaiflashtirish, uning iqtisodiy va siyosiy salohiyatini susaytirish, strategik hudud va resurslar ustidan nazoratni qo'lga kiritish yoki boshqa g'arazli maqsadlar ko'zlangan

holda turli nayranglar qo'llaniladi. Aholini radikalashtirish, jamiyatni mafkuraviy yoki diniy bo'linishlarga undash, yoshlarga nomuvofiq ta'lim berish yoki diniy mutaassiblikni dastaklagan holda dunyoviy ilmda rivojlanishga yo'l bermaslik shunday nayranglardan sanaladi. Nega yo'l berishmaydi? Chunki harbiy, iqtisodiy, siyosiy, texnologik jihatdan qolox xalqlar va mamlakatlarni boshqarish, ular egalik qilib turgan yer osti va yer usti, inson resurslarini qo'lga kiritish oson. Shuning uchun ularning rivojlanishiga turli yo'llar bilan to'siq qo'yiladi.

Xalq va davlat rivojiga g'ov bo'lajak o'sha to'siqlarning biri aholini radikalashtirishdir. Ijtimoiy hodisa hisoblangan bu fenomen birorta davlat uchun xayrli bo'lmagan. Keling, tarixiy dalillarga murojaat qilaylik.

IX-X asrLar, Xuroson. Abbosiylar davri. Nishopur, Marv, Balx xaniri buyuk ilm markazlarida dastlab ilm ma'rifat gullab-yashnadi. Ammo diniy radikal oqim hisoblangan xorijiyalar, g'ulot firqalari, "mutazililar" ta'sirida jamiyatda ixtilof va bo'linishlar yuzaga keldi. Oqibatda ilm rivoji to'xtadi, olimlar quvg'inga uchradi. Mintaqa esa G'aznaviylar va Saljuqiylar tomonidan bosib olindi. Ilm va din o'rtasidagi muvozanatning buzilishi oxir-oqibat davlatning yemirilishiga olib keldi.

XIII-XVII asrlar. Yevropa – Inkvizitsiya davri. Katolik cherkovi vakillari dunyoviy ilm egalarni cherkov ta'limotiga qarshi chiquvchilar deb ta'qib qildi. Oqibatda faylasuf, astronom, shoirlar va ilohiyatshunos Jordan Bruno xulanda yo'qildi, astronom, fizik, matematik, muhandis va faylasuf Galiley uy qamog'iga tashlandi. Dunyoviy ilm-fan tarafdorlari bo'lgan yuzlab, ehtimol, minglab kishilar boshiga ham shunday qismat tushdi. Oqibatda Yevropada ilmiy inqirozga sabab bo'lgan "Qora asrlar" boshlandi. Jaholat ilmdan ustun kelib, taraqqiyot to'xtadi.

XX-XXI asrlar. Afg'oniston. 1970-yillardan keyin tashqi ta'sir va ichki qarama-qarshilik natijasida jamiyat ichida diniy-radikal fikrlar ustuvor bo'la boshlagani oqibatida tinch aholi urush girdobida qoldi, ta'lim tizimi vayron bo'ldi, ayollar huquqi cheklandi, intellektual salohiyat tubanga yuz burdi. Diniy radikalizm davlatni ham, xalqni ham xonavayron qildi.

Shu o'rinda savol tug'ildi: radikalashuv, xalq uchun ham, davlat uchun ham yaxshilik olib kelmas

ekan, unda nega bu ijtimoiy hodisaga qarshi turilmagan yoki bu tashqaridan boshqariladigan ulkan loyihami?

Bu savolga **O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori Habibulla Sadibaqosev** shunday javob beradi:



– Radikallashuvga ilm-hunarga beparvolik va yoshlar ta'limiga loqaydlik ham sabab bo'lishi mumkin. Tarixda ham, zamonaviy siyosiy jarayonlarda ham aholini radikalashtirish maxsus rejalashtirilgan "geosiyosiy texnologiya" sifatida qo'llanilgan holatlar bor. Buni ba'zan "idoral radikalashuv" deb ham ataymiz.

Masalan, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan Buyuk Britaniya Hindiston va Afg'onistonda "diniy radikalashuvni boshqarish" loyihagini olib borgan. O'zining imperialistik hukmronligini saqlash uchun aholini hind-musulmon ziddiyati asosida bo'lib tashlagan. Bu borada madrasalar va diniy jamoatlar orasida tor firklar, sof e'tiqod da'vodidagi qarash egalari rag'batlantirilgan, millatchilik va konfessiyaviy kurash kuchaytirilgan, ayrim radikal qanotlardan geosiyosiy manfaatlar uchun foydalanilgan. Bu nayrang natijasida Hindiston ikkiga bo'ldi, Afg'onistonda esa doimiy ziddiyat muhitiga zamin yaratildi.

1979–1989-yillar mobaynida sobiq SSSR va AQSHning "Afg'oniston jang loyihasi"ga guvoh bo'ldik. Kommunizm kengayishiga qarshi AQSH, Pokiston, SaudiyaArabistonining mahalliy guruhlar ishtirokidagi "jihodiy" harakatlarni qo'llab-quvvatlashi, madrasalardagi yoshlar ongiga "jihodiy g'oyalarni" singdirishi Afg'oniston, Pokiston va Markaziy Osiyoda radikal g'oyalarning ildiz otishiga sabab bo'ldi.

Mavzu yuzasidan yana bir ekspert – **O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi huzuridagi Diniy-ma'rifiy sohada malaka oshirish va**

qayta tayyorlash instituti direktori Husniddin Ahmedov o'z mulohazalarini quyidagicha bayon etadi:

– 2010–2020-yillari Yaqin Sharqda sodir bo'lgan "Arab bahori" inqiloblarini yodga oling. Bu chetdan turib boshqarilgan radikalashuv hodisasining bir ko'rinishi, g'arazli davlatlarning turli razvedka tizimlari tomonidan ma'naviy bo'shliqni radikal g'oyalar bilan



to'ldirishga bo'lgan urinishning bir qismi edi. Natijada Liviyada Qaddafiy rejimi yiqilgandan keyin, "Ansor ash-Sharia" va boshqa jangari guruhlar uchun maydon ochildi. Suriyada turli davlatlar qo'llagan "qo'zg'olonchilar" keyinroq "ISHID" terroristik tashkilotini shakllantirdi.

Xalqlarni radikalashtirish harakatlari hech qachon to'xtamagan. Qariyb uch asrga yaqin vaqt mobaynida targ'ib etib kelinayotgan soxta salafiylik g'oyalari ham bugun aholini radikalashtirishdagi eng ulkan loyiha sifatida yashab kelmoqda. Go'yoki "sof islom" g'oyalarni keng targ'ib etish, xalqaro ta'lim grantlari orqali yosh avlodni shu yo'nalishga jalb qilish, mahalliy diniy an'analar o'rniiga chetdan kirgan va qotib qolgan qarashlarni qaror toptirishga urinish hanuz kuzatiladi. Bunday holatlar faqat islom dini doirasida emas, aksar din vakillari orasida uchraydi. Afrika va Lotin Amerikasida, Kolumbiya va Venesueladagi diniy va etnik da'vodagi "ijtimoiy guruhlar" bugunga kelib allaqachon geosiyosiy ta'sir vositasiga aylangan. Bu hodisalar g'irromlik bilan sahnalashtirilayotgan juda katta spektakldir. E'tiqod bilan bog'liq aksar oqimlar, harakatlari, guruhlar – ayrim yovuz kuchlarning, ya'ni uchinchi tomonning o'yab topgan fitnasidagi shunchaki ishtirokchidir.

Shu o'rinda o'quvchiga ravshan yetkazish lozim bo'lgan bir haqiqat bor: radikalashish aslo hidoyat emas, aksincha, "hidoyat" libosidagi jaholatdir. Radikalashuv insonni ilmga emas – tor fikrga, bag'rikenglikka emas – nafratga, bunyodkorlikka emas – buzg'unchilikka yetaklaydi. Ekstremizmga qarshi kurash nafaqat huquq-tartibot organlarining, balki butun jamiyatning, har bir ongli insonning oldida turgan dolzarb vazifadir.

Abdulhamid MUXTOROV, "Ziyo" media markazi direktori



Baland ko'tar O'zbekiston bayrog'ini!

Boshlanishi 1-sahifada.

BAYROQ

Najmiddin Kubro bo'l, Jaloliddin bo'l,
Oftobdek balqigin, mohtob kabi to'l,
Vatan uchun yasha, Vatan uchun o'l,
Egilib kelsa ham, tovlarga berma,
Bayrog'ingni quchgin, yovlarga berma!

Bayrog'ing nomusing, oring bo'ladir,
Yoningdan ayrilmas yoring bo'ladir,
Uzun karvonlarda noring bo'ladir,
Bayrog'i yo'qlarning boshi bo'lmaydi,
Vatani, ro'zgori, oshi bo'lmaydi.

Bir bayroq ostida birlashgin, elim,
Dardingni yashirma, sirlashgin, elim,
Yuksalgin, tog'lashingin, qirlashgin, elim,
Topmasinlar ruhi sendan boyrog'ini,
Baland ko'tar O'zbekiston bayrog'ini!

SAMARQANDGA KEL

Quvonch-u g'amlarni yutgan qasrlar,
Registonda kular, yig'lar asrlar,
Har qarichda jumbog'u sirlar,
Samarqandga kel!

Tirikmi hayrating, boq: Bibixonim,
Mehrerak bo'lsa, ich, ana qonib,
Poklanmoq istasang oqqil to'lg'onib,
Samarqandga kel!

Go'ri Mir, yulduzlar qo'nib o'tar joy,
To'xtab qolar bunda o'n to'rt kunlik oy,
Mehrob deganlari shudir hoynahoy,
Samarqandga kel!

Shoh bo'lmoq istasang bitta yurakka,
Qul bo'lmoq istasang bitta yurakka,
Ko'milmoq istasang bitta yurakka,
Samarqandga kel!

BOG'I BEHISHT

Yomondin ko'ngilda dog' qolmish mudom,
Yaxshidin jahonda bog' qolmish mudom,
O'n to'rt bog' yaratmish Samarqand aro,
Sohibqirondin dil chog' qolmish mudom.

Har ayol sha'niga bog' yaratilmish,
Faxrdan ko'ngillar tog' yaratilmish.
Bog'i Behisht Tuman og'aga atab,
Temur mehri iyyan chog' yaratilmish.

Xandaq to'la suv ekan to'rt tomoni,
Xushxon bulbul, to'vuslarning chamani.
Ohular yayrarkan, qushlar sayrarkan,
Kelgan ekan go'zallikning zamoni.

To'rt ko'prik saroyga bog'ni ulardi,
Kechalar hasaddan tongda qulardi.
Iqbol-u saodat shu bog'ni izlab,
Baxt ham bog'i Behisht aro kulardi.

SAMARQANDDAN KELMADI HECH KIM

Saidrizo Alizoda so'zi

Vladimir shahridagi turma boshlig'i
Javigo xasta va pasporti yo'q Saidrizoni
olib ketinglar, deb Samarqandga xat
yo'llagan ekan. Xat qarindoshlarga
yetib kelmagan. Buyuk olim, sadoqatli
farzandiga Samarqanddan hech kim
bormagan...

Qancha qarolik bor, keldi jonimga,
Barcha og'ularni yutaverdim jim.
Ahvolimni so'rab, mening yonimga
Nega Samarqanddan kelmadi hech kim?!

Turma boshlig'ini ko'ndirgan edim,
Nafrat olovini so'ndirgan edim,
Boshimga omadni qo'ndirgan edim,
Nega Samarqanddan kelmadi hech kim?!

Garchand qaynar edi zulm qozoni,
"Olib ketinglar, deb Saidrizoni",
Xat bordi, to'zsa ham g'amlar to'zoni,
Nega Samarqanddan kelmadi hech kim?!

Hali bola edi nabiram Farhod,
Kimlarning qo'lida qolib ketdi xat,
Ko'z tutdim yo'llarga, chekib oh, faryod,
Nega Samarqanddan kelmadi hech kim?!

Minglab gunohsizlar bo'lsa ham qurbon,
Hech kimga berilmas edi bu imkon,
Vatan, seni kutdim har lahza, har on,
Nega Samarqanddan kelmadi hech kim?!

Bir ko'rsam, tanamga kirarmidi jon,
Yetmish tomirimda jo'sharmidi qon,
Makkadan bo'lsam ham qaytardim, inon,
Nega Samarqanddan kelmadi hech kim?!

Bolangning savodin chiqargan edim,
Xalqingni ko'klarga ko'targan edim,
O'zim ham shu yurtda ko'kargan edim,
Nega Samarqanddan kelmadi hech kim?!

Hatto bir xasingcha qadrim yo'qmidi?
Yovlar tirikmide, qahri cho'g'midi?
Bitta yuragimga bitta o'qmidi?
Nega Samarqanddan kelmadi hech kim?!

Yovlarim bilan ham til topgan edim,
Ilmimning ortidan yo'l topgan edim,
Boshimni silovchi qo'l topgan edim,
Nega Samarqanddan kelmadi hech kim?!

Kutaverib jigar bo'ldi qora qon,
Turma azobidan o'lmadi bu tan,
Meni bir yo'qlamay o'ldirdi Vatan,
Nega Samarqanddan kelmadi hech kim?!

Bir bag'rimga bosib hildasam, quchsam,
Mushk-u anbar tutgan xushbo'y gullarni.

Bahor tomonlarga turnaday uchsam,
Unutib xazonga to'la yo'llarni.

Eslamasam aslo kimligimni ham,
Yellarga yolborsam, qoshiga eltgil.
Qo'llari yetmayin qolib ketsa g'am,
Bahorga o'zimni topshirsam butkul.

ALLA

Dunyo uxlar beshikda-yo, alla-yo,
Toychiq kishnar eshikda-yo, alla-yo,
Bir dunyocha hikmat bor-a, alla-yo,
Enang aytgan qo'shiqda-yo, alla-yo.

Qo'li bovli, polvon bolam, alla-yo,
Orzulari alvon bolam, alla-yo.

Tomirigda Temur bobong qoni bor,
Shiddatingda yuz yigit imkoni bor,
Shul shohona taxtda bir uyg'onay deb,
Har yigitning yurakda armoni bor.

Ohu quvgan yo'lbars bolam, alla-yo,
Orom olgin birpas, bolam, alla-yo.

Bibixonim alla aytgan beshikdir,
Shahzodalar manglay urgan eshikdir.
Kindik qoning to'kilgan yurt nomiga,
Jumla jahon mahliyodir, oshiqdir.

Beshik bolam, bek bo'larsan, alla-yo,
Yoki Ulug'bek bo'larsan, alla-yo.

Zar to'nchalar tikay jonim, alla-yo,
Gul, rayhonlar ekay jonim, alla-yo,
Nur, ziyolar balqigan peshonangdan,
Cho'chib ketma, o'pay, jonim, alla-yo.

Nur jahonim, Samarqandim, alla-yo,
Arslon bolam, asal qandim, alla-yo.

SHOIRGA MAKTUB (Zulfiya monologi)

Lola ham bermading uzib qo'limga,
Ular ham yashasin, deding kuyinib.
Ammo yuragingni qo'yib yo'limga,
Ne qilsang seniki, deding suyunib!

Goh olam yukiga qalaming tirab,
Mo'jiza yaratib qo'ysang-da o'zing,
Men soddang oldida nogoh dovdirab,
Maqsading aytolmay chuvaldi so'zing.

Shafqatli taqdirda ming shukur qilib,
Ikkimiz yetgan dam sen ilhomga qul.
So'z izlab, qalbingni beayov suyding,
Unutib qo'yarding borimni butkul.

Goh to'kmoqqa rozi aylab qonimni,
Hech kim sening kabi yuklamagan g'am.
Ko'klarga ko'tarib mitti jonimni,
Hech kim sening kabi sevolmagan ham!

O'zing meni qattiq o'rnatib qo'yding.
To'lgini zo'r, otash muhabbatingga.
Nechun keragidan ortiqroq suyding,
Beparvolik bir zum kelmay yodingga.

Sen uchun olamda menchalik erka,
Menchalik sig'ingan bir jon bormidi?
Men uchun olamda vaslingdan ko'rkam,
Sendan o'zga biror inson bormidi?!

Hamid, olmaymizmi, bizlar axir o'ch,
Hijron deb atalgan kunduz, kechadan.
Samarqand yulduzi porlagan bu kech,
O'tmaysanmi yana o'sha ko'chadan?

Sening so'zlaringni yonib aytarman,
Yuragim qafasga sig'mas bu choqda:
"Meni kutgil va men qaytarman,
O'limlarni qoldirib dog'dal!"



MAYOQ

Bizga adabiyot fanidan
Yo'ldoshali Solijonov dars
berardi. Yaxshigina yumori
bor, boshqa ustozlarga
qaraganda talabalarga qal-
ban yaqinroq edi. Adash-
masam, ikkinchi kursda-
ligimizda, qishki sessiya-
dan so'ng bo'lsa kerak,
fakultetda "yangi domla
kepti" degan gap yurib
qoldi. Talaba uchun bu
xabar muhimligini o'sha
paytda o'qib, ustozlar mehri-
yu qahridan "bahramand"
bo'lgan tolibi ilm biladi.
Bilgichlarning aytishicha,
ustoz Samarqand davlat
universitetidan bizga yo'l-
langan ekan, sharif ismi –
Asqarali Sharopov. Talaba-
ligim bilan bog'liq ko'p
narsalar esimdan chiqib
ketgan bo'lishi mumkin,
ammo shu domlanning ilk
darsi hamon esimda.

O'shanda Maqsud Shayxzoda-
ning "Mirzo Ulug'bek" dramasi
bo'yicha seminar dars bo'lishi
kerak edi. Domla gapni qisqa
qildi, yo'qlama ham, tanishuv ham
bo'lmadi. Faqat:

– Bundan bu yog'iga bu kursni
sizlarga men o'taman. Mabodo
darsim yoqmasa, o'zlaringni
majburlab o'tirmanglar. Faqat
imtihon, zachyotlarni men talab
qilganday topshirsalaring bo'ldi, –
dedi.

Bir yarim yildan ziyod o'qib, hali
biror ustozdan bunaqa g'alati gap
eshitmagandik. Ustozlarimizning
deyarli bari darsga kirasak yoki
konspekt yozmasak, imtihon, zach-
yotda ko'rasizlar, deya dag'dag'a
qilishardi.

Angrayib qoldik. Domla shunday
dedi-yu birdaniga seminarga kim
tayyorligini so'radi. Albatta, ko'p-
chiligimiz qo'l ko'tardik, chunki
hammamiz o'zimizni yaxshi o'qiy-
digan talabalar deb hisoblardik.
Bo'yim pastligi uchun hamisha
oldingi partada o'tirardim. Ko'zlari
menga tushdimi yo domla bizga
taklif qilgan erkinlikning ifodasi yuz-
ko'zimga qalqidimi, menga:

– Sen chiqqin-chi, – dedi. Menga
ikki inson (ikkovi ham behad qadrlı)
birinchi ko'rganidayoq "sen" deb
murojaat qilgan: Biri – Sharopov

DUNYO ICHRA DUNYO

domla, yana biri – ustoz shoiramiz
Zulfiyaxonim.

Qo'limda adabiyotshunoslarning
"Mirzo Ulug'bek" dramasi haqida
yozgan maqolalaridan ko'chirmalar
olingan qalin daftar. Endi o'qishga
chog'langan edim (shu paytgacha
biz seminarini shunday o'tardik),
domla bexos:

– Maqsud Shayxzoda qanday
shoir? – deb so'rab qoldi. Dovdi-
radim. Tarjimayi holini o'tganmiz,
ozmi-ko'pmi bilaman. Qayerda
tug'ilgan, qanday asarlar yozgan,
tarzidagi savollar berilsa, bemaol
javob berishim mumkin edi. Ammo
bu savol men uchun kutilmagan
bo'ldi. Baribir, jim turishni ep
ko'rmadim. "Yangi domla"ning
xotirasida "bilmasoy" bo'lib o'rmasib
qolgim kelmadi.

– Yaxshi shoir, – dedim. Domla
kinoyalı kulimsiradi:
– Nimasi yaxshi?
– Yaxshi asarlar yozgan. Jaloliddin
Manguberdi haqida, Mirzo Ulug'bek
haqida...

– She'rlari-chi?
Qani, o'shanda birorta she'ri
esimga kelsa... Biz bechoralar she'r
tahlil qilib ko'ribmizmi?.. Bo'libam,
Maqsud Shayxzodaning she'riyati
ichiga kirib ko'ribmizmi? Qizarib-
bo'zarib ketgan bo'lsam kerak. Boz
ustiga, ikki og'iz gapdan domlamiz
bilim darajamni bilib oldi, shekilli:
– Marhamat, "Mirzo Ulug'bek"ka
qaytamiz, – dedi.

Men yengil nafas olgandek
bo'ldim. Darrov daftarimni ochib
yozuvlarimga qarab-qaramay, "Falon
adabiyotshunos "Mirzo Ulug'bek"
haqida undok degan, piston
adabiyotshunos bundok degan",
deya sayray boshlagan edim, domla
keskin qo'l siltab to'xtatdi.

– Menga bu asar haqida ada-
biyotshunoslarning nima degani
mutlaqo qiziq emas. Bo'lajak
adabiyot o'qituvchisi sifatida "Mirzo
Ulug'bek" haqida sen nima dey-
san? Menga shu qiziq, – dedi. Biz
hali katta yozuvchi, shoirlarning
asarlarini tahlil qilib ko'rmagan
edik. Buning ustiga, bizdan hali
asarlarning originalini o'qishni ham
talab qilishmagandi.

Jim qoldim.

– Dramani o'qidingmi o'zi? –
domlanning gapi miltiqning o'qidek
tegdi. Hartugul, o'qigan edim.

– Ha, – dedim. Ammo hozir domla
dramaning ichiga kirib, o'ziga xos
savollar (biz bu xoslikni ancha keyin
bildik) bera boshlasa, tilim tutilishi
turgan gap edi. Domla buni sezdi
chog'i:

– O'tir, – dedi va bundan keyin
seminar qay tartibda o'tishini
tushuntira ketdi:

– Bugundan boshlab yap-
yangi umumiy daftar tutasizlar.
Bundan keyin faqat konspekt bilan
kifoyalanmaysizlar. Asarni, deylik,
"Mirzo Ulug'bek"ni, avvalo, yaxshilab
o'qib chiqasizlar. Voqealar rivojini
tahlil qilasizlar. Ekspozitsiya, asar

aytilgan narsani tushunardik va
eplab ketardik. Shunday qilib, faqat
prozaik emas, poetik asarlarni ham
tahlil qilishga usta bo'lib qoldik.
Nasriy asarlardan yozuvchilarning
xatolarini ham topardik. Kunlarning
almashib ketgani, bir-ikki o'rinda
ishtirok etadigan qahramonlarning
ismlari ham chalkashib qolganini
topdik. Bunday qiziqarli tahlillarga
shu qadar berilib ketdikki,
kursimizdagi zo'r o'qiydiganlar bir
yoqda qolib, bundayroq o'qiydiganlar
ham domlanning darslarini boshqa
darslarga qaraganda yaxshi o'zlash-
tiradigan bo'lishdi. Vaqti-vaqti bilan
"O'qiladigan adabiyotlar ro'yxati"
bo'yicha vazifalarni topshirardik. Bu
mashg'ulot kollokvium deb atalar,
biz unga o'zimizcha "kalla ko'm"



dinamikasi, tugun, kulminatsiyasi,
yechim... Har birini alohida
tahlillaysiz. Keyin xuddi shu tartibda
asarning asosiy qahramonlarini,
so'ngra qo'shimcha personajlarni...
Tushunarli-a?..

Ikki para dars qanday o'tib
ketganini bilmadik. Xayrlasha turib:
– Yanagi darsda yil oxirigacha o'qib
chiqishingiz shart bo'lgan kitoblar
ro'yxatini beraman, – dedi-yu, qo'shib
qo'ydi: – Keyingi mashg'ulotda yo
Mirzo Ulug'bekning, yo sizlarning
fojialaring sodir bo'ladi...

Shu tarz zamonaviy adabiyotning
ichiga chuqurroq kirib ketdik. Hali
aytganimday, juda "bum-bum"
emasdik o'zi. Sal boshlamasi

deb nom qo'yib olgandik. Domlanning
so'roq, savollari juda g'ayritabiiy
kechardi.

– O'qidingmi?
Birinchi savoli shu bo'lardi.

– Ha.
Agar savol-javob Abdulla Qodiriy-
ning "O'tkan kunlar" romani bo'yicha
bo'lsa, domla bu tarzidagi savolni
berardi:

– Mirzakarim qudidorning eshigi-
ning qulfi qanaqa edi?

Yoki Oybekning "Navoiy" romani
bo'yicha bo'lsa, domla:
– Sultonmurodning otasi kim
bo'lgan? – deb so'rashi mumkin edi.
Albatta, savolning javobi bor-yo'g'i
uch yoki to'rt satrda ifodalangan



Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

quloqqa aylanar, havo olayotganday,
tashnalikda yutoqib suv yutayot-
ganday ichardim aytayotgan jum-
lalarini. "Nafas olmanglar-ey, Qut-
lug'oyga xalaqit beryapsizlar", deya
tegishardi o'rtoqlarim uning dars-
larida.

To'rt yil birpasda o'tib ketdi. Men
domlani qayta ko'rmasam kerak,
deb o'ylagandim. Tasodifni qarangki,
Toshkentga kelib, G'afur G'ulom
nashriyotida faoliyat boshlaganimda,
u kishi ham aynan shu nashriyotga
ishga kirdi. Nega o'qituvchilikni tash-
lagan – menga qorong'u. Domlani
nashriyotga Omon akam (Matjon)
olib kelgan bo'lsa kerak. Chunki ular
ikkovi ham Samarqand universitetida
birga o'qishgan. Bir ustoz (Nuriddin
Shukurov)dan tahsil olishgan.

Domla nashriyotda adabiyot-
shunoslik bo'limida ishladi. Paxta
yig'im-terimiga jalb etilganimizda,
u kishi shtab boshlig'i (hurmati
borligidan) bo'lardi. Albatta, nash-
riyot xodimlari talaba emas, ular
jon kuydirib paxta termaydi. Zax
o'tmasligi uchun bir etak terib,
ustida o'tirib guring qurishardi. Men
uzoqdan domla ko'rinsalar, darrov
sakrab turardim.

– O'tirsangiz-chi, vazifangiz teng,
endi ular sizning domlangiz emas, –
deyishardi hamkasblar. Men:

– Yo'q, Asqarali Sharopov bir umr
mening ustozim bo'lib qoladi, – der
edim.

...Taqqir ekan, domla u qadar
ulug' yoshga chiqmasdan vafot etdi.
Domladan "Dunyo ichra dunyo-
lar" nomli birgina kitob qoldi.
Eslashga, eslanishga arziydigan
ustoz edi. Aytganimday, Asqarali
Sharopovdan bir umrga tatigulik
saboq olganman.


(*"Yo'lichiroqlarim" turkumidan.*)



Boshlanishi 1-sahifada.

Sizning ana shunday tunlaringiz hisoblansa, yillar hosil bo'ladi.

Sizning sabr-bardoshingiz, fidoyiligi-
ngizga tahsinlar o'qimay bo'ladimi? Ayoli
o'tgan erkak har xil sabablarni ro'kach qilib
(yashirib nima qildik), ko'p o'tmay uylanish
taraddudiga tushib qoladi. Beva ayollar-
chi, ayollar?... Urush vaqtlarida (boshqa
mahallarda ham) qanchalar navjuvon
bevalar farzandlari bilan yolg'iz qolib, ularni
o'gay otaning qosh-qovog'iga qaratmay
deb, eng gullagan davrlarini qurbon
qilishgan. Onalarni qo'ying... Hayotning
qo'sha yashashdek ne'mati naqadar ulug',
naqadar totli ekanini anglab, farovon va
bekam yashash imkonlari bisyor, yana
husn-u jamolda tengsiz malika bo'la turib,
faqat o'z muhabbati, e'tiqodiga sodiq qolish,



Qamchibek KENJA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar
murabbiysi

Men Hindistonddek bepoyon mamlakat
podshosi – andijonlik Zahiriddin Boburning
bir necha chaqirim yo'lni bosib, suyuqli
rafiqasi Mohim begimga peshvoz
chiqqanini va uning otdan tushishiga izn

Siz buyuksiz, AYOLLAR!

“bevafo” degan malomat, nadomatdan
saqlanish uchun ko'p shirin orzular,
niyatlar, armonlar to'la go'zal, hur qalbini
o'z ixtiyori ila toqlik janjiri bilan bandi etgan
Zebunisobegimlarning jasoratiga, mato-
natiga nima deylik!

Ha, siz:

Men-ku, men va'dada turdim

Sochda sochbog'im bilan,

Sen-chi, sen – va'dasi yolg'on

Belda belbog'ing bilan...

– degan ayolsiz!

Ha, siz – sizni sevib e'zozlagan zavji
muhtaramning ruhi pokini chirqiratmaslik
uchun o'linga tik boqqan Mohlaroyimsiz!
Uning avlodlari, vorislarisiz, ya'ni ibratli
fazilatlari vorislari...

Siz tarix to'ridan manguga joy olgan
Jahonoro begim, Gavharshod begim,
Gulbadan begim, Nurjahan begimlar,
Arjumand bonu – Mumtoz mahallar zoti-
dansiz...

Siz – Alpomishlarni Alpomish qilgan
Barchinoylarsiz!

Siz – vafo ramzlari, timsollari Nodira-
begimsiz, Zulfiyaxonimsiz!

Siz – Lutfixonimsiz, Gulchehra –
Kumushsiz... “Chaman ichra”, “Sarvi gulro'
kelmadi”, “Tanovar” va boshqa mumtoz
ashulalarga umrboqiylik bag'ishlagan
Halima bonu, Berta xonim, Munojot
xonimsiz!

Siz – husn-u nazokat, noz-u istig'no
malikalarni timsoli Vayjantimalasiz!

Siz... Eh-he, bu ro'yxatning adog'iga
yetib bo'lmaydi.

Siz – ismlari jismiga monand Sarvinozsiz,
Tursunoyisiz, Barnosiz, Oygizsiz, Oy bilan
Gulning qovushgani, uyg'unlashgani –
Mohigulsiz...

Zero, hazrat Navoiy:

Jondin seni ko'p sevarmen,

ey umri aziz,

Sondin seni ko'p sevarmen,

ey umri aziz,

Har neniki sevmak ondin

ortiq bo'lmas,

Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
deb bejiz dil izhori etmagan!

Bejiz Zahiriddin Bobur sizning oyoq-
laringizga bosh qo'ysam, deb armon
qilmagan. Mavlono Fuzuliy sizning qaddu
bastingizga jonini bejiz tasaddug'-u qurbon
aylamagan!...

Ha, aslida, oy sizga timsol qilingani uchun
go'zal, o'zida yo'q erka! Gul sizga qiyos
etilgani bois, nafis, xushbo'y, shundan fe'li,
tabiati ham sizga o'xshash: ko'z-u dilning
huzuri-yu ammo tikoni bor...

Inchunin, siz – muhabbat ma'budalarisiz.
Mumtoz adabiyotimizdagi eng zo'r she'r-
larga, dostonlarga qahramon bo'lib kel-
gansiz, bundan keyin ham shunday bo'lib
qolaverasiz. Inchunin, Layli va Majnun,
Vomiq-u Uzro, Farhod-u Shirin qissalarini
o'qib hayratlanamiz. Lekin, taajjub: to'qil-
gan o'sha rivoyatlardan hayratlana-
miz-u, Bobur va Mohim begim, ular-
ning chevaralari Shohjahan va Mumtoz
begimlarning hayotiy ishq qissalaridan
u qadar hayratlanmaymiz, avlodlarga
ibrat qilib ko'rsatmaymiz! Holbuki, ular
o'z muhabbatlarini, sadoqatlarini xalq
oldida oshkora namoyish etishgan. Yo'q,
aslida, bu ibora xato, ular “namoyish
etish”ni o'ylashmagan, ular qalb amrlarini
bajo etgan, xolos. Balki, hind filmlaridagi
an'anaviy oshiq-ma'shuqlik, vafo va
sadoqat mavzulariga asli ana shu
insonlarning sevgilari asos bo'lgandir.

bermay, qaytaga jilovdorlik qilib, yana
qancha piyoda yurganini o'ylayveraman,
o'ylayveraman... Ana shu hol g'arblıklar
“jentlmenlik” deb ataydigan nazokatning,
iltifotning, jo'mardlikning, ayolparvarlikning
asl sharqona, oliy namunasi edi!

Men boburiy shohlarga poytaxt bo'lgan
Agra shahridagi, Hindistondagi ikki
mashhur daryoning biri Jamna bo'yidagi
besh asrdan beri olam sayyohlarini
hayratga solib kelayotgan viqorli, salobatli
Tojmahalni eslasam, ana shu betimsol
obidaning yaratilish tarixini, Shohjahan va
Mumtoz Mahallarning bir-birlariga bo'lgan
otashin muhabbatlari, mehr-u oqibatlarini
o'ylayveraman-o'ylayveraman. “Tojmahal”
Mumtoz begim vasiyati, iltimosining
ijrosigina emas, balki erning xotinga
cheksiz muhabbati, sadoqati ramzi hamdir.
Shuning uchun ham uni “Sevgi dostoni”,
“Muhabbat va musibat yodgorligi” kabi
nomlar bilan ta'rifiyladilar. Darhaqiqat,
qariyb 20 yil davomida 22 ming ishchi,
quruvchi, hunarmand kuchi, san'ati bilan
barpo bo'lgan bu muazzam maqbara uchun
Shohjahan umrining ana shuncha yiilini,
butun dunyosini bag'ishlagan, sarflagan!
Naqadar buyuk zot-a, ayol! Naqadar kuchli
uning muhabbatli!...

Albatta, masalaning ikkinchi tomoni ham
bor – Mohim begimlar, Mumtoz Mahallar
o'z oqilalıkları, sharqona odoblari, ya'ni
sabr-bardoshlari, hayo va ibolari, iffatlari,
vafodorliklari, o'z panohlari, valine'matlari
izzat-hurmatini joyiga qo'ya olishlari, ularga
maslakdosh-u maslahatdoshlik maqomiga
erishganliklari va boshqa fazilatlari bilan
ana shunday muhabbatga, qadrlovga loyiq
edilar!

Zamonamizda ham Mohimlar, Mumtoz
Mahallar yo'q deysimiz, bor! Albatta,
ularning buyukligiga, muqaddasligiga soya
soladiganlar ham yo'q emas. Lekin bu
galcha ular haqida sukut saqlasak. Zero,
olqamaslikning o'zi yoqlamaslik-ku!

Darvoqe, Nostradamus degan farang
bashoratchisi bundan bir necha yuz yil
ilgari XXI asrda ayollar saltanatining
yuzaga chiqishiga sha'ma qilib ket-
gan ekan. Haqiqatdan ko'z yumib
bo'lmaganidek, daryo to'qlinini, to'g'irrog'i,
dunyo to'qlinini ham to'xtatib qolish
amrimaholga o'xshaydi. Darhaqiqat, hozir
g'ayri bir holat yuz berayotgani sir emas:
savdo dunyosi – bozordagi, umuman,
ko'chadagi odamlarning uchdan ikki
qismi, balki undan ham ko'prog'i ayollar!
(Buning sabablari boshqa, alohida
mavzu). Demochimizki, ayollarning
faollashuvi ham davr, zamon taqozosi,
chog'i. Lekin ularning faollashuviga erkak-
larning sustlashuvi, faolsizlashuvlari
sabab bo'lmayaptimikini? Shunday bo'lsa,
bu durust alomat emas. Bizda ayollar
hamisha erkaklar himoyasida, panohida,
qaramog'ida, ardog'ida bo'lib kelgan, o'z
nafosati, nazokati, latofati, pazanda-yu
bekaliklari bilan davramizni, oilamizni,
hayotimizni, dasturxonimizni bezagan,
umrimizga umr qo'shib, unga mazmun va
fayz bag'ishlagan.

Ayollarning gulga qiyoslanishi bejiz
emas. Har qalay, ulardan atir bo'ylari
ufurib tursa, nigohlaridan mamnunlig-u
saodat yolqinlari chaqnaib, tiniq yonoqlari
purkalgan, surkalgan qizil rangdan emas,
tabiiy ol rangdan jilolanib tursa...

Illo, diyorimiz ayollariga, qizlariga ana
shunday dilbarlik, baxtiyorlik, ruhafzolik,
mo'tabarlik yarahsgay!

SHUKUR BURHON BASHORATI

O'zbekiston xalq artisti Malika IBROHIMOVAGA maktub

Boshlanishi 1-sahifada.

Derazadan qor yog'ishini tomosha
qilgancha, o'yg'a toldim. Aniqrog'i, qirq yillar
ortga qaytdim. U paytlar “Yosh gvardiya”
(hozirgi O'zbek davlat drama teatri) teatrida
ishlardingiz. Teatr san'atining fidoyisi Ergash
Masafoyev bosh rejissyor edi. O'sha mashhur
rejissyor qo'ygan spektakllarda o'ynagan
rollaringiz ko'z oldimdan o'tdi.

Esimda, Siz xoh bosh rol, xoh qiyqim
rol bo'lsin, qoyilmaqom ijro etardingiz
va tomoshabin esida qolardi. Zero,
Ergash Masafoyev har bir rol maromiga
yetmaguncha spektaklni sahnaga olib
chiqmas edi. Men uning repetitsiyalarini
ko'p kuzatganman. Har bir so'zga, uning
talaffuziga, qaysi so'zga urg'u berishga,
qisqasi, eng mayda detallargacha ahamiyat
berar edi. Nihoyatda talabchan rejissyor
edi. Fikrim va kuzatishimcha, uning talablari
o'rinni edi. Spektakl mukammal bo'lishi bilan
bir qatorda, aktyorlarning mahorat qirralarini
ochishga katta e'tibor qaratardi. Masafoyev
talablariga chidolmay teatrdan ketib qolganlar
ham bo'ldi. Ammo uni to'g'ri tushunib,
o'z ustida ishlagan aktyor va aktrisalari
keyinchalik teatr va kino san'atimizning
ko'zga ko'ringan namoyandalari bo'lib
yetishdi. To'g'on Rejimetov, Shirin Azizova,
Murod Rajabov, Isamat Ergashev va
albatta, Siz – o'sha maktab vakillari edingiz.
Yaqinda bir suhbatda aytgan gaplaringizni
o'qidim: “Men rejissyor Ergash Masafoyev
bilan ishlab, san'at naqadar mashaqqatli
soha ekanini anglab yetdim. Intizom nafaqat
san'atda, hayotda ham muhim ekanligini
bildim... Ergash aka rahbarligida aktyor
har qanday qiyofaga kirishi lozim ekanini
o'rgandim”. Bu fikringizning isboti sifatida
bitta misol keltirmoqchiman. O'sha yillari
“Ilhom” teatrida qo'yilgan “Jamoat fikri”
spektaklida to'rtta rolni ijro etgansiz. Bitta
spektaklda to'rt qiyofaga kirish, to'rt xil
xarakterni ko'rsata olish – aytishga oson...

Yoshlik yillarimizdagi suhbatlarimizni
hozir ham mamnuniyat bilan eslayman. Siz
ijro etgan rollar, yangi spektakllar haqida,
umuman, hayot muammolari to'g'risida
qanday yonib, kuyib-pishib gaplashardik,
bahslashardik...

Bugun qor yog'ishini tomosha qilib o'tirar
ekanman, ich-ichimdan savollar yog'ilib
kelmoqda. “So'nggi marta Malika qatnashgan
qaysi spektaklni tomosha qilding? Shuncha
yillar davomida uning ijodida qanday
o'zgarishlar bo'ldi? Kuzatdingmi? Malika
O'zbekiston xalq artisti unvonini olishga
muyassar bo'ldi. Bu o'z-o'zidan bo'lmaydi-
ku!” Afsuski, bu savollarga menda aniq
javoblar yo'q edi.

To'g'ri, Sizning faoliyatingizni, ijodingizni
umuman esimdan chiqarib yuborganim yo'q.
Matbuot, televideniye orqali baholi imkoniyat
kuzatdim. Turli ijodiy davrlarda Sizning
mahoratingiz, ijro etgan rollaringiz haqida
so'z ketganida suhbatga qo'shilib, fikrlarimni
aytdim. Lekin, tan olishim kerak, Sizni
bevosita sahnada ko'rmaganimga ko'p bo'ldi.
Buni qarangki, aksiga olib ko'cha-ko'ydada
yoki har xil tadbirlarda ham uchrashmadik.
Bilaman, Siz o'zingizni namoyon etishni,
hozir ko'pchilik, ayniqsa, san'atkorlar
uchun urf bo'lgan piarni yoqtirmaysiz, turli
nashrlar-u ijtimoiy tarmoqlarda damba-
dam ko'rinish berishni istamaysiz. Men esa
go'yo jiddiy ishlar bilan band bo'ldim. Aslida
hafsalasizlik, dangasalik, xolos. O'zimizni
oqlashga bahonalar topishga usta bo'lib
ketganmiz-a. Nima, bir spektaklni tomosha
qilishga ketadigan ko'pi bilan ikki-uch soat
vaqt topilmasidmi?

Shu o'y-xayollar bilan teatrga otlandik
(kelinim va nevaram bilan). Hamon qor
yog'moqda. Qish chillasi bo'lsa-da, qav
sovuq emas, yoqimli. Daraxtlar, binolar oq
libosga burkangan. Juda go'zal manzara.
Talaba nevaram Xadichaga yuzladim:
“Qara, atrof qanday go'zal!” Xadicha mayin
jilmayib, to'g'ri, degan ma'noda bosh
irg'adi. O'zi shunaqa u, kamgap. Mening
ruhim yengil, kayfiyatim ko'tarinki. Ochig'i,
anchadan beri bunaqa yaxshi kayfiyatda
bo'lmagan edim...

Hozir biz tomosha qilish uchun borayotgan
spektakl Bertold Brext pyesasi bo'yicha
qo'yilgani uchun xayollarim shu yozuvchi
ijodi tomonga ko'chdi. Brext nafaqat nemis
adabiyoti, umuman, jahon adabiyotidan
munosib o'rinni egallagan shoir, nosir va
dramaturg. O'n olti yoshidayoq she'rlari,
esselari tilga tushadi. 1918-yilda talaba-
medik va harbiy gospitalda sanitar bo'lib
ishlayotgan yigirma yoshli Brext “Marhum
askar haqida afsona” she'rini yozadi va
katta shov-shuvga sabab bo'ladi. Oradan
o'n besh yil o'tib, gittlerchilar ushbu she'r'i
uchun Brextni Germaniya fuqaroligidan
mahrum qiladi. 1933-yilda u Germaniyadan
chiqib ketadi. O'n besh yildan ziyod
turli mamlakatlarda yashaydi. 1948-yil



22-sentyabrda Berlinga qaytib keladi. Uning
asarlari asosan urushni qoralash, urush
keltirgan ofatlar haqida.

“Shaddod ona va uning bolalari” pyesasi
Ikkinchi Jahon urushi arafasida yozilgan.
Yozuvchi bo'lajak fojiani tasavvur qilganday,
xayol ko'zlari bilan ko'rganday taassurot
qoldiradi tomoshabinda. Asar mazmuni va
muallif g'oyasiga teranroq yondashilsa,
urushdan manfaat ko'zlamaslik, Gitlerning
yovuz niyatidan ehtiyot bo'lish bo'yicha
nemis xalqiga chaqiriq kabi ko'rinadi. Har
qalay, menda shunday taassurot uyg'otdi.

Shaddod ona – murakkab obraz. U
o'g'illari Eylif, Shveytserkas va gung qizi
Katrini bilan xaridorgir mahsulotlar ortigan
aravasini sudrab yuradi. Urush oqibatida
hamma narsasidan ayrilgan odamlarga
narsalarini qimmat bahoda sotib, boy
bo'lishni mo'ljallaydi. Urush bo'layotgan
joylarda bir necha yil yuradi aravasini
sudrab. Alaloqibat, boylik orttirish o'rniga
farzandlaridan ayriladi – ular urush qurboni
bo'ladi. Urush oddiy odamlar uchun hech
qachon boylik keltirmagan, aksincha, azob-
uqubatga duchor qilgan. Afsuski, Anna buni
anglab yetmaydi, o'z oilasi boshiga tush-
gan kulfatlardan ham xulosa chiqarmaydi.
Bolalari o'limiga aslida o'zi sababchi eka-
ni ham tushunmaydi. Shaddod onaning
ayanchli taqdiri tomoshabinda urushga nafrat
uyg'otadi, urush ortidan boyishni o'ylagan
kimsalarga nisbatan achinish paydo bo'ladi.
Annaning ochilmagan ko'zi tomoshabin
ko'zini kattaroq ochadi, saboq beradi. Va
tinchlilni qadrlashga, asrab-avaylashga
da'vat etadi.

Malika, Siz bu obrazni juda qoyilmaqom
ijro etdingiz. Annaning shaddodligini, niyati
ezgu emasligini, fojiasini ochib tashladingiz.
Ammo ona – baribir ona-da, farzandlari
taqdiriga befarq qarayolmaydi. To'ng'ich
o'g'li Eylifning harakatlardan jahli chiqadi va
yuziga shapaloq tushiradi-da, yana darhol
bag'riga bosadi. Birgina shu detalda ona
mehr namoyon bo'ladi.

Spektakl finali nihoyatda ta'sirchan.
Urush tufayli boylik orttiraman, deb sarson-
sargardon bo'lgan shaddod ona uch bolasi-
dan, bor-budidan ayrilib, aravani yolg'iz
o'zi sudrab ketadi. Juda teran, yuraklarni
titratadigan ma'no-mazmun bor bu yerda. Bu
Brext falsafasini, uning turli janrda yozilgan
akrsariy asarlari g'oyasini, ijtimoiy faoliyatini,
muallifning urushga munosabatini ifodalovchi
so'zsiz sahnaga o'xshaydi.

Spektakl asari va shu asosda qo'yilgan
brextl bugungi kun uchun ham dolzarb.
Dunyoning turli mintaqalarida bo'layotgan
voqealar bu fikrni tasdiqlaydi. Ulug' shoirimiz
Abdulla Oripov yozganidek, “Tinch turami
bu ko'hna olam, Tinch turami dog'uli
zamon?” Shu ma'noda, Milliy teatrimiz
ushbu spektaklni namoyish etayotgani diq-
qatga sazovor. Haqiqiy akademik teatrga
mos spektakl bo'libdi (tarjimon T.Tursunov,
rejissyor T.Isroilov). Chunki har qachongidan
ko'ra hushyor, sergak, oqoh bo'lish talab
qilinayotgan zamonda yashamoqdami.
Qachon, qayerdan o'z chiqishini hech kim
bilmaydi.

Spektakl ikki soat davom etdi. Shu vaqt
mobyaynida shaddod ona, ya'ni Siz, Malika,
sahnadan deyarli chiqmadingiz. Butun
spektakl davomida tinmay harakat, jon
kuydirib gapirish, qo'mondon-u askarlar
bilan bahslashish, ularga bo'yin bermaslik,
o'z fikrini o'tkazish... Bular uchun ham ruhiy,
ham jismoniy quvvat kerak. Diqqat bilan

kuzatdim, biron joyda qoqilish, adashish,
chalg'ish bo'lmadi. Har qalay, men sezmadim.
Aksincha, sahnadan sahnaga shiddat
kuchayib boraverdi, Annaning shaddodligi
yanada to'laroq namoyon bo'laverdi. Bu
Sizning mahoratingiz, tanlagan kasbingizga,
san'atga, xususan, teatr san'atiga mehr-u
muhabbatigiz, sadoqatingiz natijasidir.

Yashirmayman, spektakl boshlanishidan
oldin ozgina xavotirim bor edi. Brext asarlari
murakkab, psixologik jihatdan kuchli,
ularda tomoshabinni o'ylashga, fikrlashga
undovchi obrazlar galereyasi jamlangan.
Bunday asarlar qahramonlari qiyofasiga
kirish, uning asl maqsadini tomoshabinga
yetkazib berish yuksak mahorat talab qiladi.
Qolaversa, Malika ham endi yosh emas... Biz
istaymizmi-yo'qmi, yillar har bir insonga o'z
hukmini o'tkazadi.

Spektakl tugagach, xavotirim o'rsinsiz
ekanini, ishtibohlarim nojoiz bo'lganini
sezdim. Siz hamon o'sha-o'shasiz. O'sha
shiddat, o'sha fidoyilik.

Grimxonangizga borganimda, buni yanada
yaqqolroq ko'rdim, sezdim. Siz shunday
holatda edingizki, go'yo hali spektakl davom
etmoqda-yu, Siz sahnadasiz. Grimxonada
aktrisa Malika emas, shaddod ona o'tirardi
go'yo. Meni ko'rishingiz bilan bir so'z
aytdingiz: “Yoqdimi?” Bundan qirq yillar oldin
ham spektakldan so'ng aytadigan gapingiz
shu edi: “Yoqdimi?” Shu so'zingiz bilan qirq
yillar oldingi Malikani ko'rganday bo'ldim.
Faqat bu so'zingiz emas, ko'rinishingiz,
kayfiyat-u ruhiyatingiz ham o'sha-o'sha.
Yoshlik yillaridagi fe'lingiz o'zgarmagani
sezilib turibdi.

Siz bilan gaplashayapman-u qulog'im
ostida buyuk san'atkor Shukur Burhonning
“Vanya tog'a” telespektaklida birga rol ijro
etish jarayonida (u paytda talaba bo'lgansiz)
Siz haqingizda aytgan “Bundan katta artis
chiqadi”, degan gulduragan ovozi eshitilardi
go'yo. Hozir qarshimda o'sha “katta artis”
o'tirardi.

Buyuk insonlar adashmaydi. Ular yosh-
larning har bir harakatidan, har so'zidan,
o'zini tutishidan kelajagini tasavvur qila
oladi. Shukur Burhonning o'sha gaplari Siz
uchun oq yo'li, kelajagingiz uchun bashorat
bo'lgandir balki. Siz shu kunga qadar har bir
spektakl va filmda ustoz bashoratini oqlab
kelmoqdasiz. Har qanday holatda ham
san'atga, sahnaga, ustozlar ruhiga xiyonat
qilmadingiz. Mashhurlik, “yulduz”lik kasaliga
chalinnadingiz. Ziyrak tomoshabin o'zi bilib
olaveradi kim qanaqa san'atkor ekanini...

Teatrning chiqar ekanman, shuncha yillar
davomida Siz qatnashgan spektakllarni, Siz
ijro etgan rollarni ko'rmaganimdan yana bir
bor afsus chekdim va shu yillar ichida juda
ko'p ma'naviy boylikdan bebahra qolganimga
amin bo'ldim.

Shu o'y-xayollar bilan ko'chaga chiqdim.
Qor tingan. Shahar oppoq libosda nihoyatda
go'zal edi. Mening kayfiyatim ham shunga
moslashdi...

O'sha kunim, xususan, o'sha kecha
hayotimdagi eng mazmunli, unutilmas
kunlarimdan bo'ldi. Buning uchun Sizga katta
rahmat!

Arqonning uzuni, gapning qisqasi yaxshi,
deydilar. Shu yerda xatimni tugataman.
Sizga mustahkam sog'lik, hamisha yaxshi
kayfiyatda yurishingizni tilayman. Yangi-
yangi rollar kutamiz Sizdan! Omon bo'ling!

Cheksiz ehtirom bilan, muxlisingiz.

Mamatqul HAZRATQULOV



OLAM OLIMI

Gerti Tereza KORI

uglevodlar almashinuvi
sirlarini ochgan nobelchi



1901–2025-yillarda Nobel mukofoti bilan 67 nafar ayol taqdirlangan bo'lib, 30 nafari aynan ilm-fan yo'nalishida. Ular orasida qahramonimiz ajralib turadi.

BIOGRAFIYA

Gerti Tereza Kori 1896-yil 15-avgustda Praga shahrida tavallud topgan. Zodagon oila qizi avval uyida ta'lim oladi, keyin tabiiy fanlarga ixtisoslashgan qizlar gimnaziyasida o'qiydi. Oliy ta'limni tibbiyot bo'yicha tugatadi.

Universitetda bo'lajak turmush o'rtog'i Karl Kori bilan tanishdi. Tahsil davri Birinchi Jahon urushi tufayli og'ir sharoitda kechdi, ammo ilimga ishtiyoq yoshlarni tibbiyotga yanada yaqinlashedi, o'zaro munosabatlari sinovdan o'tkazdi. 1920-yilda ular turmush qurdi va ikki yildan keyin siyosiy beqarorlik va iqtisodiy qiyinchiliklar sababli AQSHga ko'chib o'tdi. Shu yerda eng muhim ilmiy kashfiyotlari amalga oshdi.

KORI SIKLI

Olimaning ilmiy ishlari uglevodlar almashinuviga bag'ishlangan bo'lib, u glikogenning organizmda qanday parchalanishi va qayta sintezlanishini molekulyar darajada tushuntirib berdi.

Glikogen – inson va hayvon organizmidagi uglevodlarning asosiy zaxirasi. U minglab glyukoza molekularidan tashkil topgan murakkab zanjir bo'lib, asosan, jigar va mushaklarda to'planadi. Qonda qand kamayib ketsa, organizm zaxiradagi glikogenning parchalab, glyukozaga aylantiradi va quvvat sifatida ishlatadi.

Gerti Kori mana shu jarayonni kashf etdi va ilmiy tushuntirib berdi. Uning sharafiga bu aylanma harakat Kori sikli deb fanga kiritildi.

Jismoniy harakat paytida mushaklardagi glikogen parchalanadi va energiya beradi. Bu jarayonda qoldiq mahsulot sifatida sut kislotasi (laktat) hosil bo'ladi. Laktat mushaklardan qonga o'tadi va jigarga boradi. Bu yerda qayta ishlanadi va glyukoza hosil qiladi. Sikl oxirida ushbu glyukoza mushaklarga qaytadi va glikogenga aylanadi. Jarayon organizmning energiya muvozanatini ta'minlaydi.

SALOMATLIK UCHUN AHAMIYATI

Gerti Kori glyukoza-1-fosfatni ajratib oldi (keyinchalik "Kori efiri" deb atalgan). Shuningdek, u glikogen fosforilazasi fermentini chuqur tadqiq qildi va glikogen to'planishi kasalliklarining biokimyoviy sabablarini aniqlashga katta hissa qo'shdi. Bu ishlar zamonaviy endokrinologiya va metabolik kasalliklar biokimyosining rivojlanishiga asos bo'ldi.

Olimaning tadqiqotlari diabet, gigoplikemiya va irsiy glikogenoz kasalliklarini tushinishda yangi sahifa ochdi. Uning ilmiy ishlari energiya almashinuvi buzilishlari bilan bog'liq kasalliklarni tashxislash va davolash usullarini ishlab chiqishga xizmat qildi.

Bugungi kunda metabolizm, sport tibbiyoti va klinik biokimyo sohalarida qo'llanayotgan ko'plab nazariy tushunchalar aynan uning tadqiqotlariga tayanadi.

E'TIROF

Fiziologiya va tibbiyot bo'yicha Nobel mukofoti ta'sis etilganidan so'ng qariyb yarim asr xotin-qizlar bu yo'nalishda taqdirlanmadi. Nihoyat, 1947-yilda bu "qoida" buzildi va "glikogenning katalitik aylanishi jarayonini kashf etgani uchun" Gerti Kori laureatlar safidan joy oldi.

Uning yana bir yutug'i – ilm-fanda ayollar kamsitilishini yengib o'ta olganida. O'sha paytda AQSHning ko'plab universitetlarida er-xotinning bitta kafedrada ishlashini taqiqlovchi ichki qoidalar bo'lgan. Shu sababli, Karl Koriga nufuzli lavozimlar taklif qilinganda, Gertiga faqat past maoshli texnik xodim bo'lish sharti qo'yilgan, unga professorlik maqomini berishdan bosh tortishgan. Uzoq yillar u teng mehnat qilishiga qaramay, amaldagi tartibdan 10 baravar kam maosh olgan.

Ko'p hollarda ularning birgalikdagi kashfiyotlari faqat "Karl Korining ishi" deb talqin qilingan. Faqat Nobel mukofotini olganidan keyingina, Vashington universiteti Gerti Koriga rasman professor unvonini berishga majbur bo'lgan.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

MOZIYDAN SADO

1924-yil 21-avgustda Yangi Urganch shahri yaqinidagi Cholish guzaridan kichik bir kema daryo bo'ylab Orol dengizi tomon suzib ketdi. Kemada Xorazm sho'rolar respublikasi (jadid-larga ergashgan "Yosh xivaliklar" tomonidan 1920-yilda tuzilgan Xorazm Xalq Respublikasi turli fitnalardan so'ng 1922-yilda yangicha nom olgan-di) markaziy kengashining 1924-yil 12-avgustda tuzilgan o'qishga yuborish komissiyasi tomonidan tanlab olingan yoshlar bor edi. Mazkur komissiyaga Afzal Tohiriy raislik qilgan. Komissiya tarkibida keyinchalik O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining birinchi raisi bo'ladigan Rahmat Majdiy singari jadid harakati yetishtirgan vohalik iqtidorli yozuvchi va ziyolilar bor edi.

O'qishga yo'l olgan yoshlar ikki guruhga bo'linib, birinchisiga Mullayorov, ikkinchisiga Odamov rahbar qilib tayinlanadi. Tanlab olinganlardan 40 nafari Moskvada, 10 nafari Qozonda, 110 nafari Toshkentdagi oliy va o'rta o'quv yurtlarida ta'lim olishi kerak edi. Ular orasida yetti nafar xotin-qiz ham bo'lgan. Birinchi guruh kichik kemada guzardan suzib chiqib, Orol tomonga yo'l oladi va qirg besh chaqirimlar suzmasdan, daryo qirg'og'ida qurolli kishilar paydo bo'lib, ularni ta'qib qila boshlaydi. Darg'aning shoshilinchda boshqaruvni yo'qotishi oqibatida kema Xo'jaylga yaqin yerda sayoz joyga o'tirib qoladi va yo'lto'sarlar qo'lga tushadi...

XSSR hukumati Xo'jaylidadagi harbiy nozir o'r'inbosari Mirkomil Mirsharopovga zudlik bilan kemaga hujum qilgan va qirg nafar kishini asirga olgan guruhni izlab topish bo'yicha shoshilinchnoma yuboradi. Tezkor qidiruv davomida daryo sohilidagi qamishzordan o'n yetti yigitning jasadi topiladi. Keyin yo'lto'sarlar qo'lida bo'lgan to'rt xotin-qiz ikki ming tanga badaliga ozod qilinadi. Besh kishining jasadi topilmaydi. Bu voqea 1924-yil 24-avgust kuni sodir bo'ladi.

Harbiylar sa'y-harakati bilan yo'lto'sarlardan ikki nafari qo'lga olinadi va Xivaga olib kelinib, Ko'hna Ark oldida to'plangan odamlar oldida ochiq sud qilinadi. Keyinchalik qal'ada "Ma'rifat qurbonlari" nomli yodgorlik majmuasi yaratiladi. Voqea tafsilotlarini o'rganish bo'yicha tuzilgan hukumat komissiyasi shu bilan "ish"ni yopadi. Komissiya yakuniy xulosasiga kirmagan ko'pgina holat va vaziyatlar haqidagi haqli savollarni beradigan va ularga javob izlaydigan biror mas'ul topilmaydi.

Oradan o'ttiz yil o'tgach, xuddi shu nomdagi drama viloyat teatrida qayta-qayta qo'yiladi. Shoirlar bu haqda doston va she'r'lar yozadi, hujjatli film ham suratga olinadi. Bu asarlarda asosiy urg'u voha bilan qo'shni hududda yashovchi boshqa millat vakillariga "bosmachi", "ma'rifat kushandasi", "yangicha hayotni ko'rolmaydigan alamzada kimsalar" kabi tamg'alar bosishga qaratilgan. Go'yoki, sovetlar asriy qoloq xalq farzandlari ilm olishi uchun shart-sharoit yaratib bergan, lekin ayrim dindorlar va alamzadalar bunga tish-tirnog'i bilan qarshi bo'lgan.

Turkistonning chekka hududi hisoblanmish Xorazmdan ilm olishga chanqoq yoshlarni Yevropa oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborish harakatlari 1905-yillardan boshlangan va bu ish boshida jadidlar turgan. Hali Xorazm Xalq Respublikasi tashkil qilinganiga qadar o'tgan o'n besh yillik davrda vohalik ellikdan ortiq yoshlar Qozon, Orenburg, Istanbul kabi shaharlarda tahsil olib qaytgan va ular yangi tuzilgan respublika hukumati tarkibida mas'ul vazifalarga tayinlangan. Jadidlar ta'lim olishga yuborgan yoshlar orasida xotin-qizlar ham anchagina edi. 1924-yilda bir guruh yoshlarni boshqa o'lkalarga o'qishga yuborish tashabbuskori bo'lgan Rahmat Majdiy, Qurbon Beregin va boshqalar ayni jadidlar boshlagan

JAHON AYVONIDA

URUSHNING
MOLIYAVIY ZARARI



AQSHning Eron bilan urushi Amerika iqtisodiyotiga 210 milliard dollargacha zarar yetkazishi mumkin. Bu haqda Uorton maktabi professori va moliyaviy tahlilchi Kent Smettersga tayanib, The Independent xabar berdi.

Kent Smetters prognozlariga ko'ra, hozirda iqtisodiy yo'qotish 115 milliard dollari tashkil etadi, ammo bu ko'rsatkich mojaroning tabiati va davomiyligiga qarab 210 milliard dollargacha yetishi mumkin.



ezgu amaliyot tufayli uzoq shaharlardagi nufuzli dargohlarda tahsil olgan yoshlar vakillari bo'lgan.

1924-yilning yozi adog'ida ro'y bergan qonli voqeaga nima va kimlar sabab? Sovetlar uzoq yillar bayroq qilib kelgan "ma'rifat qurbonlari" fojiasining tub sabablari qayerda? Bu fojiga aloqador barcha shaxslar javobgarlikka tortilganmi? Shu va boshqa savollarga mustaqillik mafkurasidan kelib chiqib javob izlaymiz va topamiz ham.

Xiva xonligining boshqa hududlar bilan bordi-keldisida Amudaryo kemachiligi katta ahamiyat kasb etgan. Orol dengizidan Turkmanistonning Chorjo'y shahrigacha yilning deyarli sakkiz oyida – daryoda suv to'la oqqan davrda kemalar muntazam qatnab turgan. 1880-yilda To'rko'lda Amudaryo flotiliyasi tashkil qilinadi va keyinroq kemalarni boshqaradigan darg'alar kursi ham ochiladi. Yigirmanchi asr boshlariga kelib, Amudaryo flotiliyasi ilkida yuk tashish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatadigan katta-yu kichik kemalarning soni ikki yuz elliktdan oshib ketgandi. Bu kemalar vohada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chet davlatlarga chiqarish hamda chetdan kelayotgan yuklarni manzillarga tez va betalofat yetkazishda qadimdan qolgan tuyu karvonlariga ko'ra ancha samarali va tezkor ekanini amalda isbotlab bergandi.

O'sha yillarda Urganch yaqinidagi Cholish guzaridan Chorjo'yga yo'l olgan kema uzog'i bilan bir haftada manzilga yetardi. Bu yo'l nisbatan tinch va bexavotir hisoblanardi. Yo'lovchilar Chorjo'ydan u yog'iga temir yo'l orqali Toshkentga yoki Krasnovodsk shahri orqali Yevropaga bemaol yetib olishlari mumkin edi. Bundan tashqari, vohadan daryo orqali Orol dengizi sohilidagi Orolsk daryo guzariga ham muntazam qatnovlar amalga oshirilgan. Nima uchun Toshkentga ketayotgan qirg nafar yosh Chorjo'y yo'nalishini emas, ancha uzoq va xatarli Orolsk yo'nalishini tanladi? Fojianing ildizini shundan izlash kerakmikan?

Mas'ullar avgustda daryo toshgan kezda kemalarni daryo yuqorisiga – oqimga qarshi haydashdan ko'ra oqim kuchi bilan quyiga haydash oson kechadi, deb o'ylashadi. Shu yerda haqli savol tug'iladi. Urganch yaqinidagi guzardan Chorjo'ygacha to'rt yuz chaqirim. Orolsk guzarigacha esa uch yuz chaqirimga yaqin. Orolsk guzarida kemadan tushgan yoshlar Toshkent va boshqa shaharlarga qaysi transportda yetib olishlari kerak edi? Albatta, faqat kemalarda, ya'ni Sirdaryo orqali. O'sha davrda Sirdaryo ham yog' oylarida to'lib oqqan. Shunday ekan, Sirdaryoda oqimga qarshi ikki hissa ko'proq yo'l bosish g'oyasi kimdan chiqqan?

Eng ajablanarli tomoni, 160 nafar talaba Rahmat Majdiy kuzatganidan so'ng ikki kemada yo'lga tushishi kerak edi. Ammo Masharif Polvonov degan kishi Rahmat Majdiy kelishini kutmasdan kichikroq kema yollab, qirg nafar yoshni asosiy guruhdan bir

kun oldin yo'lga tushishga ko'ndiradi va guruh yo'lto'sarlar qo'lga tushadi. Bir kun keyin yo'lga tushgan bir yuz o'n nafar yosh manzilga bemaol yetib oladi. Qolaversa, ikkinchi guruh a'zolariga har ehtimolga qarshi o'zlarini himoya qilish uchun qurol ham ajratilgandi. Eslatib o'tish joiz, 1924-yil oktyabrda o'qishga yuborilgan yoshlar tushgan kemalarni qurolli askarlar manzilgacha kuzatib borgan.

Bu fojia, aslida, o'sha vaqtda hukumat tepasida o'tirgan mas'ullarning xatosi tufayli sodir bo'lgan. Ular nisbatan yaqin va xatarsiz "Urganch–Chorjo'y" yo'nalishi qolib, uzoq va xatarli "Urganch–Orolsk" yo'nalishini tanlaydi. Yana har ikki guruh uchun mas'ul bo'lgan shaxslar o'z vaqtda Cholish guzariga yetib kelmaydi. Buning ustiga, bir guruh yoshlar shoshqaloqlik qilib, mas'ullar ruxsatsiz yo'lga otlanadi.

1924-yil – hukmdor va tarixchi Abul'g'oziy Bahodurxon ta'biri bilan aytganda, "yurt buzulg'on davr" edi. Xorazm Xalq Respublikasini tashkil qilgan "Yosh xivaliklar" o'tgan to'rt yilda ko'p savdolarni boshidan kechirdi, shu davrda o'n to'rt marta hukumat almashdi. Yangi respublika boshida turganlarning qanchasi qatag'onga, qanchasi quvg'inga uchradi. Bu fitnalarga sovetlar bosh bo'lib, o'zlari majburan yangicha atama qo'shgan respublika tepasida tajribasiz kadrlarni qo'ydi. Bu kadrlar orasida ham o'zaro inoqlik yo'q edi, har oyda qaysidir nozirlikda rahbar o'zgarar, eski nozir yo hibsga olinib, yo quvg'inga uchrab, u tanlagan kadrlar ham ko'chaga haydali, o'rniga layoqatsiz kimsalar qo'yilardi. Kattagina hudud va bir millionlik aholining iqtisodiy-ijtimoiy muammolari uchun mas'ul qilingan ayrim kadrlarning savodi haminqadar bo'lib, ular hatto imzo chekishni bilmasdi.

Jadidlar ta'sirida tuzilgan respublika hukumati tepasida turgan iqtidorlarning aksari xorij oliygohlarida tahsil ko'rgan, dunyo siyosatidan boxabar, ma'muriy boshqaruv hadisini olgan kishilar edi. Ayni shu insonlar davrida uzoq yurtlarga tahsil olish uchun yuborilgan yoshlardan biortasining bir tola sochi to'kilmagani holatini aynan boshqaruvdagi kadrlar tizimi mukammal bo'lganidan, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Yana bir jihat, 1924-yil 10-avgustda Turkiston Respublikasi ma'muriyati tomonidan Xivaga "Yangi o'quv yili boshlanishi vaqti oz qolgani sabab, tezkor o'qishga ishtiyoqmand yoshlarni topish va jo'natish" to'g'risida shoshilinchnoma yuboriladi. Shoshilinchnomada yuborilishi kerak bo'lgan yoshlar soni va ular qaysi kasblarga o'qitilishi ko'rsatilgani holda, ularni qanday ulovda, qaysi yo'ldan va bexatar yuborish haqida bir og'iz gap yo'q. Bundan mas'ullarni faqat son va tezkorlik qiziqtirgan, degan xulosaga kelish mumkin. Xiva shahrida o'qishga ketayotgan yoshlar sharafiga dabdabali kuzatuv marosimi tashkil qilinib, unda qal'adagi garnizon askarlari saf tortib

o'tgan. Tadbirdan so'ng askarlar yotoqlariga qaytgan, yoshlarni, hech bo'lmasa Cholish guzarigacha kuzatib borish hech kimning xayoliga kelmagan.

Xo'jayli yaqinida daryo qirg'og'ida yoshlar tushgan kemani kutib turgan qurolli guruhni "oson o'lja"dan kim ogohlantirgan bo'lishi mumkin? Bu savol ham mazkur fojia tafsilotlarini o'rganish uchun tuzilgan hukumat komissiyasi e'tiboridan chetda qolgan. Ataylabmi? Balki. Yana, mo'may pul evaziga qirg nafar yoshni manzilga eltishga va'da bergan, ammo yo'lto'sarlar qarshisida illosiz qolib, qayiqli daryo o'rtasidan haydash o'rniga (yo'lto'sarlar daryoning bir qirg'og'ida kutib turgan, qo'rqitish uchun uzoqdan o'q uzgan, ammo masofa uzoqligidan otgan o'qlari besamar ketgan) qirg'oqqa yaqin haydagan kema darg'asi nega javobgarlikka tortilmagan?

160 nafar yosh daryo orqali Orol dengizidagi daryo guzariga suzib borishi haqidagi ma'lumotni kim yetkazgan? Bir kun oldin ruxsatsiz kichik kemada yo'lga chiqqan guruh haqida kim xabar bergan? Bu ishni daryo yoqasida qo'y boqib yurgan cho'pon qilgan desak, o'zimizcha ertak to'qigan bo'lamiz. Demak, o'sha vaqtda hukumat ichida yangicha tuzum va tepadagi rahbarlarga qarshi kishilar bo'lgani aniq.

Balki bu ish oldindan sovetlarning maxfiy xizmat xodimlari tomonidan puxta reja qilingandir? Bunday to'xtamga kelishimizga sabab, hali hamon vohada sovetlarga qarshi turli kuchlar qattiq qarshilik qilayotgan, Junaiddxon qatida yurtini himoya qilgan vatanparvar yigitlar qurollarini tashlamagandi. Ular sovetlar xizmatiga o'tgan faollarni, kichikroq qal'alarga bosqin uyushtirib, sovet hokimiyati qo'ygan vakillarni mahv qilardi. Qarshilik harakati susaymagani sababli, Toshkentdan Mirkomil Mirsharopov boshliq kattagina qo'shin kelib, Xiva va boshqa katta shaharlarda garnizonlar tashkil qilgandi. Shunday tahlikali zamonada qo'riqchilarsiz kemandan daryoda bemaol suzishi mumkin-midi? Yo'q, albatta!

Buni qarangki, o'sha fojidan omon qolgan guvohlar keyinchalik o'z xotiralarida kemada bor ovoza qo'shiq aytib borishgani haqida yozishgan. Yaratilgan sahna asari va boshqa badiiy-hujjatli qissalarda ham asosiy urg'u "elni ozod qilgan sho'rolarga shon-sharaflar" mazmunidagi qo'shiqlarga qaratiladi.

Xayolimizdan sovetlar bu fojiani atay uyushtirgan, shu orqali ilm olishga havasmand yoshlarni qatl qilishdan qaytmaydigan, eski tuzumni sog'ingan kishilar haliyam bor, ularga qarshi shafqatsiz kurashishimiz kerak, degan tushunchani odamlar ongiga quygan bo'lishlari mumkin-ku, degan fikrlar o'tadi. Voqealar rivoji va undan keyin ro'y bergan holatlar bu fikrimizni tasdiqlaydi. Vohada qarshilik harakati vakillari va ularning oila a'zolari shafqatsiz qirib tashlanadi. XXRni tuzgan va uning birinchi rahbari bo'lgan Boboovun Salimov lavozimidan ketib, Gurlandagi ota uyida tinchgina yashayotgan bo'lsa-da, 1926-yilning bir tunida "qizil tayoq"lar tomonidan otib ketiladi. "Ma'rifat qurbonlari" jallodlarini topishda jonbozlik qilgan M.Mirsharopov, M.Qariyev va boshqalar boshiga ham qatag'on qilishi tushadi.

Yana bir achchiq haqiqat bor. "Ma'rifat qurbonlari" ulug'lana boshlagan kezlarda boshqa kemada manzilga sog'omon yetib, turli dargohlarda tahsil olib qaytgan yoshlarni ham 1937-yil qatag'oni o'z domiga tortib ketgan. Bundan kelib chiqadiki, agar o'sha yigirma ikki nafar yigit yo'lto'sarlarga uchrarmaganida ham, vaqt kelib qaroqchilardan battar bo'lgan NKVDchilar qo'lga tushishi aniq edi. Mantiq qani?

Yaqin tariximizning sovetlar miyamizga quygan bir asrlik yolg'oniga haqqoniy baho beradigan vaqt keldi. Shunday deymiz-u... Ikki yil avval vohada chop qilingan jadidlar haqidagi kitobda "ma'rifat qurbonlari"ga oldi eski gaplar yana takrorlangani ushuni yozishga majbur qildi.

Ro'zimboy HASAN

Bu haqda Ichki ishlar vazirligi bayonotiga tayanib, Al Jazeera xabar berdi.

Vazirlik birinchi marta to'rtta davlat fuqarolariga "vizalar uchun favqulodda cheklov" qo'llanganini ta'kidladi. Bu qaror o'quv vizasi bilan kelgan talabalar orasida boshpana so'rash keskin ortganidan keyin qabul qilingan.

AQSHGA "YO'Q" DEDI



Ispaniya bosh vaziri Pedro Sanchez Yaqin Sharqdagi harbiy keskinlashuvlarga "ko'r-ko'rona va qulnamo" ergashishni qat'iyy rad etib, Isroil, AQSH va Eron o'rtasida zudlik bilan o't ochishni to'xtatishga chaqirdi.

AQSHning X ijtimoiy media platformasida e'lon qilingan videomurojaatida Sanchez

Ispaniyaning pozitsiyasi "urushga qat'iyy ravishda qarshi" ekanini ma'lum qildi.

O'LIM MASHINASI



Italiyada besh nafar bemorni o'ldirgan-likda gumonlangan tez yordam mashinasi haydovchisiga jinoiy ish ochildi. Bu haqda mahalliy prokuratura ma'lumotiga tayanib, CNN xabar berdi.

2025-yil fevraldan noyabrgacha aynan bir haydovchi tashigan to'rt nafar bemor vafot etgan. Bu esa tez yordam xizmati xodimlarida shubha uyg'otgan.

Shundan so'ng Italiya politsiyasi bilan hamkorlikda tez yordam mashinasiga yashirin kamera va yozib olish quurilmalari o'rnatilgan. Keyinchalik haydovchi tashiyotgan 85 yoshli ayol ham yurak kasalliklari shifoxonasidan reabilitatsiya markaziga olib ketilayotganda vafot etgan.



MILLAT FIDOYILARI

QOR QO'YNIDAGI LOLALAR

“1937–1938-yillarda qatag'on qilichining o'tkir tig'i ayollarimizning dur va marvarid shodalari bezab kelgan nozikkina bo'yinlariga ham qadalgan edi”, deb yozadi akademik Naim Karimov o'z tadqiqotlarida. Darhaqiqat, ayollar qismati g'oyat ayanchli ediki, ular boshiga yog'dirilgan kulfatlarni ko'z oldimizga keltirishimiz qiyin. Turma va lagerlarda turli azob-uqubatlarga giriftor etilgan “xalq dushmanlari”-ning xotinlari, Cho'ipon ta'biri bilan aytganda, o'sha mudhish davrning qor qo'ynidagi lolalari edi.

1938–1946-yillarda Shimoliy Qozoqistonning Qarag'anda hududidagi “ALJIR” (“Акмолинский лагерь жён изменников родины”) lagerida “Vatan xoinlarining oila a'zolari” sifatida olti yarim ming nafar ayol jazo o'tagani arxiv hujjatlarida qayd etilgan. Bu raqam oddiy statistik ma'lumot emas, turkistonlik minglab ayolning iztirobli qismatini ochiqdaydi. Ular otasining, umr yo'ldoshining “ayb'i uchun jazo o'tagani yetmagandek, farzandlaridan ham judo etilgan, uzoq o'lkalarda og'ir mehnat sharoitida yashashga majbur bo'lgan.

Alamtisi, qatag'on qamrovi ayollar bilan cheklanib qolmay, ularning bolalariga ham chang solgan. 1937-yil 15-avgustdan 1939-yil yanvargacha Ittifoq bo'yicha 25 ming 342 nafar bola oilasidan ajratib olingan. Ularning



Viloyat Xo'jayeva turmush o'rtog'i va farzandi bilan.

22 ming 427 nafari Xalq maorifi komissarligi tasarrufidagi bolalar uylari va mahalliy bog'chalarga tarqatib yuborilgan. 15 yoshdan yuqorilari “ijtimoiy xavfli” deb baholanganida holda qamoqqa olingan.

Qarag'anda lagerida jazo mud-datini o'tash davrida 1507 ta tug'u-ruq qayd etilgan. Bu bolalarning aksariyati zo'ronlik oqibatida dunyoga kelgan. Yana yuzlab ayollar bo'lganki, ular “xalq dushmani”ga chiqarilgan farzandi, eri va yoki otasining “aksilinqilobiy, millatchilik faoliyatlar” haqida siyosiy idoralarga o'z vaqtida xabar bermagani uchungina qamoqqa olinib, tergovga tortilgan. Ularning ko'pchiligi xat-savodsiz bo'lib, maishiy tashvishlar bilan o'ralashib qolgani uchun ko'p gapdan bexabar edi. Bu hol tergovchilar uchun ayni qo'l kelib, ulardan jigargo'shalarining dushmanlik faoliyatini tasdiqlovchi ko'rsatmalar berishni talab etishgan. Bo'yin egmagan ayollar qiynoqlarga duchor etilgan.

Shunday ayollardan biri **Xadicha Aliyeva** “xalq dushmani” G'ozii Yunusning xotini bo'lgani uchungina 1938-yil 5-aprelda 3 yil muddatga “ALJIR”ga badarg'a qilingan. U taniqli



davlat arbobi Mo'min Usmonovning turmush o'rtog'i, jurnalist **Sobira Xoldorova** bilan bitta lagerda bo'lgan. Yoki Andijon okrug partiya tashkilotining sobiq kotibi O'rinboy Ashurov qatag'onga uchrab olib tashlangach, rafiqasi **Kimyoxon Ashurova** 5 yilga ozodlikdan mahrum qilinib, Krasnoyarsk o'lkasiga yuborilgan. U Yenisey daryosi bo'yida bir chol-kampining uyida jon saqlab, 1942-yili 33 yoshida ona yurtiga qaytib kelgan.

Boshqa bir jadid – 1938-yil 4-oktyabrda otuvga hukm qilingan millat ziyolisi Abdulhay Tojiyevning

Yillar o'tib, bu oila taqdiri tarixiy xotira va ilmiy izlanishlar doirasida keng tilga olina boshladi. 1990-yil sentyabr oyida Buxoro davlat universitetida katta ilmiy anjuman bo'lib, unda Viloyat Xo'jayeva ham ishtirok etgandi (O'sha vaqtidagi institut rektori, professor Farhod Qosimov hamda ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, professor Sulaymonjon mening yaqin do'stlarim, maslakdoshlarim bo'lib, qator asar va maqolalarni birgalikda yozgandik. Shu bois, o'shanda Viloyat Xo'jayeva bilan ko'rishib, suhbatlashish sharafiga muvaffaq bo'lganman. Fayzulla Xo'jayevning hayoti va faoliyati haqida maqolalarim hamda kitoblrimda baholi qudrat yoritib kelmog'daman).

Yuqoridagi singari mudhish qismatlar qatag'on yillarida yuzlab, minglab takrorlangan. Jumladan, 1917-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan **Habiba Aliyeva** “ijtimoiy xavfli unsur” sifatida, banditlar guruhi tomonidan rejalashtirilgan qurolli bosqin to'g'risida bilanlikda ayblanib, 1937-yil 20-avgustda 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Boysun tumani Gulhakim qishlog'ida 1903-yili tug'ilgan **Dono Xolmo'minova** esa bosmachilik harakati ishtirokchisi sifatida qayd etilgan. 1934-yili kolxoz molini yo'qotgani uchun olti oyga majburiy mehnatga tortilgan bu ayol hibsga olingan paytda kolxoz a'zosi edi. Keyinchalik unga aksilinqilobiy isyonkor tashkilot a'zosi, Boysun bo'limidagi noqonuniy yig'inlar ishtirokchisi degan ayb qo'yilib, 1938-yil 4-fevralda 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm chiqarilgan.

Ko'hna Urganchning Ko'yli qishlog'ida 1895-yilda tug'ilgan **Jamila Rajabova** aksilinqilobiy qo'poruvchilar guruhining ishtirokchisi, shuningdek, o'z bolasini kolxozga qarashli paxta omborini yoqib yuborishga majbur etganlikda ayblanib, 1938-yil 7-fevralda otuvga hukm qilingan. 1912-yili tug'ilgan, Xo'jayli tumanida yashagan **Oygul Shirmonova** ham shu kabi ayblovlar ostida jazoga tortilgan. Uning turmush o'rtog'i aksilinqilobiy faoliyatda ayblanib o'tib tashlangan. O'zi esa hibsga olingan paytda tayinli yumushga ega emas edi. Jamila Rajabovaga qanday bo'htonlar yog'dirilgan bo'lsa, unga ham aynan shunday hukm o'qilib, bir kunda otuvga hukm qilingan.

Anglaxiladiki, qatag'on siyosat turli hudud va ijtimoiy qatlam vakillarini qamrab olgan. Bu holat Farg'ona viloyati arxiv materiallarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, Farg'ona shahar bo'limi taqdim qilgan 4150-sonli ish bo'yicha **Jongulbibi To'xtasinova** (1874-yili tug'ilgan, ruhoniy, eshon oilasidan bo'lgan) 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilinib, jazo muddati 1937-yil 8-avgustdan hisoblangan. Unga eshon ko'rsatmasi bilan diniy yig'in o'tkazish niqobida o'zbek ayollarini to'plab, ular orasida aksilinqilobiy va millatchilik targ'iboti olib borganlik aybi qo'yilgan.

Shu davrda 1904-yili Qo'qon yaqinidagi Qoramulla qishlog'ida tug'ilgan **To'paniso Tojiboyeva** ham qatag'on tegirmonidan chetda qolmagan. Sobiq quloq sifatida

qayd etilgan, davlat majburiyatlarini bajarmagani uchun avval sudlangan, “jazo muddatini o'tamay qochgan” bu ayol hibsga olingan vaqtda kolxoz a'zosi edi. Keyinchalik unga kolxoz intizomini buzishga qaratilgan tizimli aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlik aybi qo'yilib, O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi asosida 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm chiqarilgan. Jazo muddati 1937-yil 23-noyabrdan hisoblangan.

Qatag'on siyosatining qamrovi faqat “ijtimoiy yot unsurlar” yoki qishloq ayollari bilan cheklanib qolmaganini **Tojixon Shodiyeva** taqdirida ko'ramiz. 1905-yili Farg'ona shahrida ishchi, shaxtyor oilasida tug'ilgan bu ayol 1928-yilgacha komsomol a'zosi bo'lgan. 1930–1933 yillari Moskva shahrida marksizm-leninizm kursini tamomlagan. Shuningdek, Xorazm Kompartiyasi Markaziy Komitetida instruktor (1921–1922), Qo'qon shahrida oblast partiya komitetining xotin-qizlar bo'limi mudirasi (1923–1925), Samarqand shahrida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida xotin-qizlar bo'limi mudirining o'rinbosari (1926–1930) bo'lib ishlagan. Ancha yil partiya va davlat idoralarida mas'ul lavozimlarda faoliyat yuritgan, markaziy o'quv yurtlarida tahsil olgan bo'lsa-da, u ham qatag'on to'laqinidan chetda qolmagan. 1937-yil 2-iyunda hibsga olinib, 1938-yil oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining Toshkentda o'tgan sayyor sessiyasi qarori bilan 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan.

Ma'lumki, “Katta terror” qurbonlari orasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash olib borgan “bosmachil”, “qo'rboshi”, “lashkarboshi”, “jadid” va “sarkarda”larning oila a'zolari, jumladan, ayollari ham bo'lgan. Bu o'rinda mashhur lashkarboshi Shermuhammadbekning ayoli **Soliyaxon Ma'murov**ning fojiali taqdirini eslash joiz. 1937-yil 4-dekabr kuni davlat xavfsizligi serjanti Lebedev qarori bilan hibsga olingan Soliyaxon 1900-yili tug'ilgan, millati o'zbek, boynig qizi, partiyasiz edi. Turmush o'rtog'i Farg'ona vodiysida dong taratgan, o'sha paytda Afg'onistonda muhojirlikda yashayotgan qo'rboshi Shermuhammad xalq orasida Ko'rshermat nomi bilan tanilgan. Hibsga olingan paytda Soliyaxon “Paxtaqaynar” kolxozi a'zosi edi.

Tergov birinchi navbatda uning oilasi haqida so'roqlardan boshlanadi. U o'z ko'rsatmasida deydi: “Akam Ma'murov Mamadali 1922-yilda Afg'onistonga yashirin tarzda o'tib ketishga uringan paytda qizillar tomonidan o'ldirilgan. Ikkinchi akam Ma'murov Mahmud qayerda ekanini bilmayman. Qishloqdoshlar gaplariga ko'ra, Tojikiston NKVDsi tomonidan qamoqqa olingan”. Bu ma'lumotlar tergov hujjatlarida uning “shubhali muhit” bilan bog'liqligi sifatida qayd etiladi.

Tergovchining ayblovi xulosasi Soliyaxon Ma'murovga nisbatan tuhmatlarga to'la edi. Go'yoki u avvaldan sovet hokimiyatiga qarshi kayfiyatda bo'lgan, deb ko'rsatiladi. Tog'asi Xoliqov orqali eri bilan xat yozishib turgani ta'kidlanadi. Hujjatlarda u Xoliqov yordamida

o'z buyumlarini sotib, akasi orqali Afg'onistonga – eri oldiga o'tib ketishga uringani qayd etiladi. Ammo akasi qamoqqa olingani sababli bu reja amalga oshmay qolgani yoziladi. Shundan keyin u qishloqqa qaytib, “Paxtaqaynar” kolxozi a'zolari orasida ig'vogarona mish-mishlar tarqatgan, degan ayb ilgari suriladi.

Ayblovdan Soliyaxon kolxozchilarni qo'rqitib: “Siz o'zbeklar yevropacha kostyum va furashka kiyib, o'zbeklar dini va urf-odatlariga isnod keltirmoqdasizlar, tez orada erim Ko'rshermat kelib sovet hokimiyatini yo'q qiladi, shunda u siz o'zbeklarga ruslar kiyimlarini kiyib yurishni va o'zbeklar urf-odatlarini esdan chiqarmaslikni ko'rsatib qo'yadi”, degani qayd etilgan. Shu asosda u O'zSSR Jinoyat kodeksining 61-moddasi 1-qismi bilan javobgarlikka tortilib, ish Toshkentga, O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi “uchligi”ga yuboriladi. 1937-yil 7-dekabrda “uchlik” 13650-sonli ish bo'yicha qarorini aytadi. Soliyaxon



Tojixon Shodiyeva

Ma'murova 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilinib, jazo muddati 1937-yil 4-dekabrden hisoblanadi.


Soliyaxon Ma'murova jazoni avval Toshkentdagi O'rta Osiyo lagerida o'taydi, so'ng Kirov viloyatidagi Vyatskiy mehnat-tuzatuv lageriga etap qilinadi. Mahbus 1939-yil 15-mayda lagerdan turib O'zSSR Oliy Sovetiga afv so'rab ariza yo'llaydi. Unda o'z boshidan o'tgan voqealarni bayon etadi va aybsizligini ta'kidlaydi. Jumladan, arizada shunday yozadi: “Farg'onaning Toshloq rayoni Zarkent qishlog'ida *“Paxtaqaynar” kolxozida kolxoz a'zosi*man, kolxozdagi mavsumiy ishlar tugashi bilan Qo'rg'ontepda rayonidagi tug'ishgan opamnikiga borganman, unikida bir oy bo'lib, yana uyga qaytib kelganimda, meni uyga qo'ymay, darhol qamoqqa olishgan, bir necha kun Farg'ona turmasida meni erining oldiga qochmoqchi bo'lgan deb tergov qilishgan. O'sha payt qo'lmda 5 yillik pasport bo'lgan, hech qanday tanbeh olmaganman, chegaraga yaqin ham qaramay, gumonlanib, 14 oy mobaynida Farg'ona turmasida yotdim... Men lagerda bo'yin tovlamasdan ishlamoqdaman, ma'muriy jazoga tortilmaganman. Sotsialistik intizomning barcha qoidalariga itoat qilmoqdaman. Mening ishimni tekshirib chiqishni va ozod qilishni komissiya a'zolaridan ittimos qilaman”.

Ushbu murojaat asosida Soliyaxon Ma'murova ishi qayta ko'rib chiqish uchun Farg'ona viloyati Toshloq ichki ishlar bo'limiga yuborilib, qo'shimcha tekshiruv-tergov harakatlari olib boriladi. Biroq 1940-yil 31-dekabrda viloyat ichki ishlar boshqarmasi “uchlik” qarorini o'z kuchida qoldiradi. Shu tariqa, Soliyaxon Ma'murova tomonidan GULAGning Vyatskiy lageridan yo'llangan afv etish haqidagi ariza ijobiy hal qilinmaydi. Uning keyingi taqdiri hali aniqlanganicha yo'q...

O'zga yurtlardagi qamoqxonalarda mahbuslikning beshafqat kunlarini o'tkazgan ayollar qancha! Ulardan ayrimlarining nomi arxiv sahifalarida saqlanib qolgan bo'lsa-da, ko'pining taqdiri hanuz ilmiy tadqiqotlarga muhtoj. Tarix bu ayol qahramonlarimiz nomlarini hamisha o'z bag'rida – avlodlar xotirasida saqlaydi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Nazir To'raqulov – 1892-yili tug'ilgan. Qo'qondagi rus-tuzem maktabi va savdo bilim yurtini tugatgan. 1918–1919-yillarda sovet idoralarining turli lavozimlarida ishlagan.

Keyinchalik SSSRning Hijoz (hozirgi Saudiya Arabistoni) davlatidagi Bosh konsuli va Muxtor elchisi bo'lgan (1928–1936). Moskva hamda Leningraddagi Sharq xalqlari instituti ilmiy xodimi va prorektori lavozimida xizmat qilgan.

Biroq turkiy xalqlar tarixi va madaniyatini yaxshi bilgan, dunyo ko'rgan arbob sifatida mavjud tuzumning kamchiliklarini anglab yetgan. U 1937-yil 15-iyunda qamoqqa olinib, otuvga hukm qilingan.

Bobojon Shodiyev – 1889-yili Shofirkon rayoni Xant qishlog'ida tug'ilgan. “Milliy ittihad” tashkiloti a'zosi. Hibsga olingan paytda kolxoz kotibi bo'lib ishlagan.

O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan “millatchi guruh” ishtirokchisi sifatida “doimiy ravishda aksilinqilobiy targ'ibot olib borgan”i uchun 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 28-noyabrdan hisoblangan.

Mulla Zokir Yusupov – 1878-yili Andijonda tug'ilgan. 1931-yil quloq qilingan. “Sho'royi Islom” tashkilotining a'zosi. Hibsga olingan vaqtda kolxoz a'zosi bo'lgan.

Yig'inlarda O'zbekistonda “musulmon-obod” davlatni tashkil etish uchun isyonni, mag'lubiatchilik kayfiyatini targ'ib qilishda ayblangan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi va 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Shamsiddin Badriddinov – 1897-yili Qozon guberniyasi Maminsk rayoni Tuntar qishlog'ida tug'ilgan. 1913-yili andijonlik yirik boylardan Ahmadbek hoji Temirbekov qo'lida mahsulot omborida tikuvchi, mudir yordamchisi bo'lib ishlagan. 1919-yili qizil gvardiyachilar safida bo'lib, Jalolobodda “quloq”lar qo'zg'olonini bostirishda ishtirok etgan. Musulmon otliq polki harbiy qo'mondoni darajasiga ko'tarilgan.

Faoliyati davomida Andijon uyezdi militsiyasining siyosiy bo'limi rahbari, oblast sudining a'zosi, okrug sudining raisi o'rinbosari, Farg'ona okrugi prokurori, O'zbekiston SSR Oliy Sudi prokurori yordamchisi, prokurori vazifalarida xizmat qilgan.

“Milliy ittihad”ga a'zo bo'lgani, milliy-ozodlik harakati vakillarini qurol-yarog' bilan ta'minlagani, o'z lavozimini suiiste'mol qilgani gumon qilinib, 1932-yil may oyida hibsga olingan. Unga nisbatan Jinoyat kodeksining 63-moddasiga binoan e'lon qilingan otuv jazosi keyinroq 10 yilga Sibir o'lkasiga otuv bilan almashtirilgan.

Rashid Fozilov – 1902-yili tug'ilgan. Maktabda o'quv bo'limi mudiri vazifasida ishlagan. “Milliy ittihad” tashkiloti a'zosi.

“Sovet hokimiyatini ag'darishga yo'naltirilgan faoliyat olib borganlikda, millatchilikda, mustaqil burjua davlatini yaratish uchun kurashganlikda” aybdor deb topilib, O'zSSR JKning 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 2-sentyabrdan hisoblangan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).



“Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg'ular qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, mahdudlik o'rninga milliy g'oyalar vujudga keladi.”

Abdulla AVLONIY



EHTIROM

MILLATNI KIM UYG'OTADI?

XX asr boshlarida Turkistonda uyg'onish shamoli esa boshladi. Jadidlar juda yaxshi anglardiki: millatni uyg'otish uchun, avvalo, uning onasi va bo'lajak onalari – xotin-qizlarni uyg'otish kerak edi.

Tarbiya beshigini onalar tebratadi. Demak, ilmi ona – ma'rifatli avlod, ma'rifatli avlod esa ozod va qudratli millat, demak. Jadidlar ayolni faqat oila doirasidagi shaxs emas, balki jamiyatni shakllantiruvchi kuch sifatida ko'rdi.

“Jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlarning o'zni va nufuzini oshirish – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir”.

Shavkat MIRZIYOYEV


Mahmudxo'ja Behbudiy nafis xilqat vakillarining savodsizligi millatning kelajagiga tahdid ekanini anglab, qizlar maktabini ochish, ularni dunyoviy fanlar bilan tanishtirish harakatlarini boshlaydi. Jaholat zanjirini uzish uchun ayolning qalbiga ilm nuri kirishi shart edi.

Ilm – ayolning ziynati. Jadidlar ayolni faqat go'zallik timsoli sifatida emas, balki tafakkur egasi sifatida ko'rdilar. Ular uchun ayolning eng buyuk ziynati – ilm edi.

Abdurauf Fitrat o'z asarlarida bu masalaga alohida to'xtalib, jamiyat taraqqiyotini ayollarining ijtimoiy faolligi bilan bog'laydi. Uning qarashicha, ayolning erkin fikrlashi millatning erkin fikrlashidir. Zero, “ayol qaram bo'lsa, jamiyat ham qaram bo'ladi; agar ayol ongli bo'lsa, jamiyat ham ongli bo'ladi”. Bu qarashlar o'sha davr uchun jasorat edi. Chunki ayolni faqat uy-ro'zg'or bilan chegaralash, uni ilm-ma'rifatdan chetda qoldirish keng tarqalgan edi.

Cho'lpon she'r va maqolalarida ayollarining ruhiy ozodligi haqida kuyunib yozadi. Uning satrlarida ayol qalbining iztirobi, jamiyatning unga qo'ygan sun'iy to'siqlari aks etadi. Cho'lpon uchun ayol muhabbat timsoli bo'lish bilan birga, hurriyat ramzi ham edi.

TILBILIM



Mushtipar so'ziga “O'zbek tilining izohli lug'ati”da shunday izoh berilgan: Qo'ldan biror ish kelmaydigan, ojiz, bechora (ayollar haqida). Boshqa lug'atlarda ham izohlar shu ma'noda keladi va dard ustiga chipqonday notavon degan xunuk sifatni ham qo'shib qo'yishadi. Ehtimol, bu so'z paydo bo'lgan ilk davrlarda shu ma'noni anglatgandir. Lekin keyin ma'no o'zgartgan.

Men bolaligimdan bu so'zni ko'p eshitganman, lekin uni qo'ldan ish kelmaydigan ojiz, bechora ma'nosida tushunmaganman. El tilida bu

so'z mehribon, kuyunchak, jonkuyar, duogo'y ma'nolarida kelishini anglaganman. Akalar singillarini mushtiparim deyishgan. Onalar o'g'illariga “mushtiparingdan boxabar bo'l” deb qizlarini omonat qilishgan.

Yo'q, bu so'zni “bechora”, “notavon” ma'nosida qabul qilish qiyin. Mushtipar so'zida she'riy ruh bor. Mushti par deganda opa yo singilning hatto mushti ham parday yumshoq, seni ursa ham, urishsa ham botmaydi, aksincha yoqimli deganday ma'noni ilg'ash mumkin.

Eshqobil SHUKUR



Barno RAVSHANOVA,
O'zDSMI 3-bosqich talabasi

qalam bilan boshlagan islohot bugun davlat siyosati darajasida davom etmoqda.

Bugungi o'zbek ayoli – shifokor, olim, muhandis, tadbirkor, deputat, sportchi. U bir vaqtning o'zida mehribon ona, sadoqatli farzand va faol fuqaro. Shunday ekan, jadidlarning “ilmi ayol – millat najoti” degan g'oyasi bugun yangi mazmun kasb etmoqda. Bugungi ilmi va faol ayol – Yangi O'zbekiston bunyodkoridir.

Tarix shuni ko'rsatadiki, ayolni qadrlagan jamiyat yuksalgan. Ayolni cheklagan jamiyat esa tanazzulga yuz tutgan. Demak, bugungi e'tibor – bu kelajakka qaratilgan sarmoya. Jadidlar orzu qilgan ma'rifatli ayol obrazi bugun hayotga yaqinlashmoqda. Endigi vazifa yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, ayolning ilmiy, ma'naviy va ijtimoiy salohiyatini to'liq namoyon etishdir. Matonat, baxt va bilim – ayol shaxsiyatining uchta asosiy ustunidir.

“Bir erkakni o'qitsangiz, bir shaxsni o'qitgan bo'lasiz. Bir ayolni o'qitsangiz, butun bir millatni o'qitgan bo'lasiz”.

Jeyms EGGRI

Ayol baxti – jamiyatning barometri. Bu fikr shunchaki chiroyli gap emas, balki ijtimoiy-psixologik haqiqatdir. Ayol xonadonning “energetik markazi”. Baxtli ayol o'zidan ijobiy energiya taratadi. U baxtli bo'lsa, farzandlari mehrda o'sadi, turmush o'rtog'i xotirjamlikda yuradi. Agar jamiyatda ayollar o'zini himoyalangan va qadrlangan his qilsa, o'sha jamiyatda sog'lom avlod shakllanadi. Ayolning tabassumi – uyning fayzi, millatning osoyishtaligi.

Bu iqtibos ayolning jamiyatdagi eng muhim roli – tarbiyachi ekaniga urg'u beradi. Erkak kishi olgan bilim ko'pincha uning shaxsiy karerasi va muvaffaqiyatiga xizmat qiladi. Ammo ilmi ayol – bu ilmi ona, demak. Bolaning dunyoqarashi, tili va axloqi birinchi navbatda onaning intellektual darajasiga bog'liq. Binobarin, ayolga berilgan ta'lim zanjir reaksiyasi kabi butun avlodlarga o'tadi. Ilmi ayol – ma'rifatli jamiyatning poydevori hisoblanadi. Ushbu uchta jihat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bilimli ayol hayotiy vaziyatlarda ko'proq matonat ko'rsata oladi, va o'z navbatida, o'zi hamda yaqinlarining baxтини qanday qurishni yaxshi anglaydi.

TIL OG'RIG'I



“Yillar kesimida” nima degani?

Bugun og'zaki nutqimizdan tortib rasmiy davlat hujjatlari, qonunlarimiz matnigacha o'rnatib qolayotgan g'alati so'z va iboralarimiz bisiyor. Masalan, “yillar kesimida” degan jumlagi deyarli har bir dastur va reja, statistik ma'lumot va ilmiy-tahliliy maqolalarda duch kelish mumkin. “Yillar kesimida olib qaraganimizda”, “sarf-xarajatlar yillar kesimida” va hokazo.

Menimcha, buning o'rni “yillar davomida”, “muayyan yil bo'yicha” kabi iboralarni qo'llagan ma'qul. Chunki “kesim” so'zi “O'zbek tilining izohli lug'ati”ga ko'ra, kesilgan bo'lak, biror jismni tekislik bilan kesish natijasida hosil bo'ladigan yuza kabi ma'nolarni ifodalaydi. Shuningdek, til ilmiida gapning bosh bo'laklaridan biri kesim deb atalishini yaxshi bilasiz. Xo'sh, shularning birortasi yil so'zi bilan mantiqan bog'lanadimi? Bog'lansa, bosh ustiga, bog'lanmasa, bunday iboradan voz kechgan ma'qul.

“Tegishincha” kimga tegishli?

“Tegishincha” aynan “tegishli” degan ma'noni bildiradi. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da mavjud, ammo “kam qo'llanar” ekan. “Tegishli”ni yetti yoshdan yetmish yoshgacha hamma biladi, “tegishincha”ni qonun ijodkorlaridan boshqa nechta odam tushunadi? Masalan men, o'zimni o'zbek tilining bilimdoniman, deb ko'krak kerib yurgan odam, bu so'z ma'nosini lug'atni varaqlamay turib anglayolmadim.

“Nobank”

Bu iqtisodchi va moliyachilarimiz kashfiyoti. Masalan, kreditni bankdan emas, boshqa joydan olsangiz, nobank kredit bo'lar ekan. “Nobop”ni bilamiz, “nomoddiy”ni eshitganmiz, ana endi “nobank” ham chiqibdi. O'zi maza-bemaza gaplardan quloq-miyamiz g'ovlab ketyapti. Yana bitta yasama so'zga ehtiyoj bormi?

Ustoz muharrirlarimizdan biri rasmiy hujjatda ushbu so'zni “bankdan tashqari” deb o'zgartirib qo'ygani ko'rdim. Mavzuga mos tushdi. Matnga qarab uning yana boshqa muqobil ifodalarini topish mumkin, deb o'ylayman. Masalan, qayerdan olingan bo'lsa, o'sha joyning nomini aniq aytib, “falon joydan olingan kredit” deyilsa ham, biroq e'tiroz bildirmasa kerak.

Qog'ozdagi “loyiha”

Keyingi paytlarda “loyiha” so'zi ham juda faol. O'rinni qo'llangan holatlar ham bor. Lekin bu so'z ko'pincha o'rinsiz, noto'g'ri ishlatilayotgandek tuyulmoqda. Masalan, bir ko'rsatuv yoki eshittirish tayyorlanib, efigra uzatilsa ham, uni “Falanchi Falonchiye'vning loyihasi” deb og'iz to'ldirib e'lon qilishyapti (bu holatni asosan xususiy kanallarda

kuzatish mumkin). Yoki birorta taqdimot marosimiga borsangiz ham, “loyiha”larni tomosha qilib qaytasiz. “Bu – Falonchixon Falonchiye'vning kreativ loyihasi” deyishadi. Diqqat bilan qarasangiz, uning loyiha emas, chinakam ijodiy ish yoki mahsulot ekanini ko'rasiz.

Savol tug'iladi: xo'p, namoyish etgan narsangiz hali chizma holatida, pishib yetilmagan, xom, ya'ni shunchaki qog'ozdagi loyiha darajasida ekan, uni ommaga taqdim etishdan maqsad nima? Yoki aksincha, ijodiy (ilmiy) ishingiz, asaringiz tayyor mahsulot (asar, ijodiy ish) darajasiga yetgan ekan, uni nega kamsitib, haliyam loyiha deb omma e'tiboriga havola qilasiz?

Loyiha (hali chala, pishib yetilmagan, chizma holatidagi ish) bilan tayyor ijod mahsuli (asar)ning farqiga borish uchun akademik bo'lish shart emas. Shu paytgacha bu so'zning ma'nosi borasida biror itilof chiqmagan edi. Biz – keyingi avlod vakillari o'zimizcha chiroyli gapiramiz, deb kulgiga qolyapmiz, xolos.

Keling, arab tilidan o'zlashib, allaqachon o'zimiznikiga aylanib ketgan “loyiha” so'zining ma'nosiga e'tibor qarataylik. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da shunday yozilgan:

LOYIHA (*arabcha. – ro'yxat; nizom, qoida; reja, dastur*) - 1. Bino, inshoot, mashina va shu kabilarni qurish yoki tiklash uchun ishlangan, tayyorlangan hujjatlar (chizma, hisob-kitob, andoza, nusxa va shu kabilar) majmui. 2. Qaror, farmon, qonun va shu kabi hujjatlarning dastlabki xomaki matni.

Hurmatli “loyiha”chilar! Demak, bitgan ishni hech uyalmasdan, tortinib-qimtinib o'tirmasdan, bemaol o'z nomi bilan atayvergan ma'qul. Kamtarlik qilib, aniqrog'i, kamsitib, tayyor ishni “loyiham” deb o'tirish to'g'ri emas.

Keys, layfhak, startup, narrativ, kreativ...

Esikcha – arab alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvidan tuppa-tuzuk savodi bor rahmatli To'qsori bobomiz o'tgan asrning 40-yillarida “savodsizlikni tugatish kurslari”ga majburan qatnay boshlabdi. Bu paytda yoshi anchaga borib qolgani uchun yangi harflarni o'zlashtirishga ko'p qiyinalibdi. Oxiri joniga tegib, “E, Abilan T, egangdi jel Sovetinggayam, uning yozuvigayam...” degan ekan. Men bugun “keys, layfhak, startup, narrativ, kreativ, ambitsiya, novorot, povorot, razvorot, balo-battar” degan so'zlarni ehsitsam, To'qsori bobomning gapini eslayman.

Bunchalar ta'sirchan, bunchalar mutaassib bo'lmasak? Hammani qadrlaymiz – faqat o'zimizni, o'z tilimizni emas.

Qaddimizni ko'taraylik, axir tilimiz BMT minbaridan yangray boshlaganiga o'n yil bo'lyapti, do'stlar. Dunyoda salkam 60 million odam bizning tilimizda gaplashmoqda. Biz bo'lsak, haliyam “novorot, povorot, razvorot” qilib yuribmiz.

Elmurod NISHONOV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Jadid
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:

Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Адади - 18 501
Шундан:
Кирилл ёзувида - 6 708
Лотин ёзувида - 11 793
Медиа кузатувчилар - 81 234
Буюртма: Г - 340
Ҳажми: 4 босма табоқ, А2.
Нашр кўрсаткичи - 222.
Ташкилотлар учун - 223.
1 2 3 4 5 6

Сahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzili:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadicgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAAT FONDI